

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI BILIM VA  
MALAKALARNI BAHOLASH AGENTLIGI**

# **AXBOROTNOMA**

## **BULLETIN**

**4**

**2025**

**Toshkent**



## KIRISH

“Axborotnoma” ilmiy-uslubiy jurnalining ushbu sonida 2025-yil 14-oktabr kuni Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan tashkil etilgan “Bilim va malakalarni baholashda nazariy va amaliy yondashuvlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallaridan tanlangan maqolalar chop etilmoqda.

Birinchi maqolada Maqolada O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sifatini baholash tizimini takomillashtirishga qaratilgan islohotlar, xususan, Bilim va malakalarni baholash agentligining rivojlanish bosqichlari, maqsadi va vazifalari, uning faoliyatida amalga oshirilgan islohotlar haqida so‘z yuritigan. Imtihan natijalarini hisoblashda xalqaro tajribalarning joriy etilishi, chet tili va umumta’lim fanlaridan milliy test tizimining bosqichma-bosqich joriy etilishi va takomillashtirilishi hamda baholash jarayonlarining shaffofligi va obyektivligini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar yoritib berilgan.

Ikkinchi maqolada Bilim va malakalarni baholash agentligining ona tili va adabiyot fanidan milliy sertifikati (adabiyot qismi) mazmun-mundariyasi hamda baholanadigan konstruktlar A-level (Buyuk Britaniya, Singapur), AP (AQSH) va International Baccalaureate (IB Diploma Program) singari xalqaro kvalifikatsiyalarning mazmun-mundariyasi hamda baholanadigan konstruktleri bilan solishtiriladi va Milliy sertifikat tizimini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan.

Uchinchi maqolada nemis tili grammatik bilimlarni, xususan, sifat turlanishi, artikllar, olmoshlar va gap qurilishi kabi konstruktleri baholashda autentik badiiy matnlardan foydalanish metodologiyasi o‘rganilgan.

To‘rtinchi maqolada tarix fanidan o‘tkazilgan test sinovlari natijalari asosida test savollarining javob namunalari sinaluvchilar qobiliyat darajasiga va aksincha qobiliyat darajasi javob namunasiga qanchalik sezgir ekanligi, shuningdek, test topshiriqlarining qiyinlik darajalari va sinaluvchilarning qobiliyat darajalari o‘rtasidagi mutanosiblik o‘rganilgan.

Beshinchi maqolada zamonaviy til testlarida lisoniy va vizual vositalarning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganishda multimodal diskurs tahlili (MDA) metodologiyasining imkoniyatlari tadqiq etiladi. IELTS, TOEFL iBT va PISA kabi xalqaro baholash tizimlari misollari asosida, vizual elementlar matnni shunchaki to‘ldirib qolmay, balki ma’no hosil qilish jarayonida faol ishtirok etishi asoslab berilgan.

Oltinchi maqolada qoraqalpoq tili mashg‘ulotlarida esse yozish jarayonida o‘quvchilar duch kelayotgan asosiy qiyinchiliklar chuqur tahlil qilingan.

Yettinchi maqolada O‘zbekiston Respublikasida ilk bor qo‘llanilayotgan, ko‘zi ojiz shaxslarning og‘zaki kompetensiyalarini baholash uchun mo‘ljallangan yangi maxsus test topshiriqlari formati haqida ma’lumot taqdim etilgan.

Sakkizinchi maqolada kogeziya (bog‘lanish) va kogerentlik ( mantiqiylik, bir butun bo‘lib turish) kategoriyalarining chet tilida yozma nutq ko‘nikmalarini baholashdagi o‘rni tahlil qilingan.

To‘qqizinchi maqolada ta’lim tashkilotlariga qabul jarayonida qo‘llaniladigan pedagogik o‘lchov vositalari, xususan test topshiriqlarini ishlab chiqish va ekspertizadan o‘tkazishga qo‘yiladigan talablar, test topshiriqlarini yaratish amaliyotini yaxshilash uchun metodik tavsiyalar taqdim etilgan.

DOI /10.5281/zenodo.18933350

## BILIM VA MALAKALARNI BAHOLASH AGENTLIGI FAOLIYATIDAGI ISLOHOTLAR

**M.M. Karimov, J.T. Odilov**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy Ta'lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi, 100084, Toshkent sh, Bog'ishamol k., 12*

**Qisqacha mazmuni.** Maqolada O'zbekiston Respublikasida ta'lim sifatini baholash tizimini takomillashtirishga qaratilgan islohotlar, xususan, Bilim va malakalarni baholash agentligining rivojlanish bosqichlari, maqsadi va vazifalari, uning faoliyatida amalga oshirilgan islohotlar haqida so'z yuritgan. Imtihon natijalarini hisoblashda xalqaro tajribalarning joriy etilishi, chet tili va umumta'lim fanlaridan milliy test tizimining bosqichma-bosqich joriy etilishi va takomillashtirilishi hamda baholash jarayonlarining shaffofligi va obyektivligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar yoritib berilgan.

Agentlikning xalqaro baholash tashkilotlari bilan hamkorligi, pedagogik o'lchovlar sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlari, malaka oshirish kurslari hamda kadrlar salohiyatini rivojlantirish yo'nalishidagi faoliyati bayon qilingan.

Milliy baholash tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, ta'lim sifati monitoringini tizimli yo'lga qo'yish va baholash tizimida zamonaviy yondashuvlarni joriy etish nazariy va amaliy ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** baholash tizimi, Rash modeli, milliy sertifikat, pedagogik o'lchovlar, xalqaro baholash, ta'lim sifati.

### 1. Kirish

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ushbu islohotlar nafaqat ta'lim sifatini oshirish va zamonaviy bilimlarni chuqur o'zlashtirishga, balki xalqaro mehnat bozori talablariga javob bera oladigan, raqobatbardosh va yuqori malakali kadrlar tayyorlashga qara-

tilgan strategik maqsadlarni ham o'z ichiga oladi.

2017-yildan boshlab Harakatlar strategiyasi, keyinchalik Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida ta'lim sohasida tubdan yangilanishlar boshlandi: maktabgacha ta'lim qamrovi keskin oshirildi, oliy ta'lim muassasalari soni 70 tadan 200 tagacha ortdi, yoshlarni oliy ta'limga qamrab olish darajasi 9 foizdan 42 foizga oshdi, ta'lim

dasturlari esa xalqaro standartlarga moslashtirildi.

Mazkur islohotlarning asosiy maqsadi – “Uchinchi Renessans” g’oyasini ro’yobga chiqarish, ya’ni zamonaviy bilim va innovatsiyalarga asoslangan yangi avlodni shakllantirish orqali mamlakatning barqaror iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlashdan iborat. Ushbu jarayon nafaqat davlat ta’lim muassasalarini modernizatsiya qilish, balki xalqaro hamkorlikni kengaytirish orqali amalga oshirilmoqda.

Bu sohada Bilim va malakalarni baholash agentligining ham hissasi salmoqlidir. Ushbu tashkilot o’z oldiga qo’yg’an maqsad va vazifalari ham yoshlarni oliy ta’lim muassasalariga saralash, ularning bilim darajasini sertifikatlash, pedagog va rahbar xodimlarni attestatsiyadan o’tkazish kabi muhim vazifalarni bajarishdan iboratdir.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Davlat test markazi tashkil etish to’g’risida”gi 1994-yil 14-maydagi 258-son qarori bilan O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tashkil etildi [1].

1998-yil 11-martda Vazirlar Mahkamasining “Davlat test markazi tarkibida kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish, pedagog kadrlar va ta’lim muassasalari attestatsiyasi

boshqarmasini tashkil etish to’g’risida” 109-son qarori bilan Davlat test markazi tarkibida Kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish, pedagog kadrlar va ta’lim muassasalari attestatsiyasi boshqarmasi tashkil etildi. Quyidagilar Boshqarmaning asosiy vazifalari etib belgilangan:

kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish va o’quv jarayoni samardorligini xolisona baholash tizimini joriy etish borasida izchil davlat siyosatini amalga oshirish;

hozirgi zamon talablarini hisobga olgan holda uzluksiz ta’lim tizimi pedagog, professor o’qituvchilari va rahbar kadrlar attestatsiyasini tashkil etish va o’tkazish;

idoraviy bo’ysunishi va mulkchilik shaklidan qat’i nazar, barcha turdagi ta’lim muassasalarini attestatsiyadan o’tkazish va shu asosda ularni akkreditatsiya qilish uchun tegishli hujjatlar tayyorlash va Vazirlar Mahkamasiga taqdim etish, ta’lim muassasalari reytingini belgilash;

ta’lim tizimini boshqarish organlari hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyatning pedagog kadrlar va ta’lim muassasalari attestatsiyasini tashkil qilish va o’tkazish borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat etish;

kadrlar tayyorlash sifati monitoringi tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

2004-yil 24-iyunda Vazirlar Mahkamasining “O’zbekiston Respublikasi

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida" 293-son qarori qabul qilinib, ushbu qaror bilan quyidagilar Davlat test markazining asosiy vazifalari etib belgilandi:

respublika ta'lim muassasalariga test sinovi orqali tanlov o'tkazish, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish maqsadida talabgorlar bilimlarini xolisona baholanishini nazorat qilish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish;

abituriyentlar, o'quvchilar, talabalar bilimlarining O'zbekiston Respublikasi davlat ta'lim standartlariga va davlat talablariga muvofiqligini tahlil qilish;

test sinovi natijalarining validligi, ishonchliligi va adolatliligini ta'minlash;

uzluksiz ta'lim tizimida band bo'lgan pedagoglar, professor-o'qituvchilar tarkibi va rahbar xodimlarni attestatsiyadan o'tkazishni tashkil etish va amalga oshirish;

idoraviy mansubligi va mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, ta'lim muassasalarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishni tashkil etish va amalga oshirish, ta'lim muassasalari reytingini aniqlash;

Vazirlar Mahkamasining Nodavlat ta'lim muassasalari faoliyatini litsenziyalash komissiyasining ishchi organi funksiyalarini bajarish;

xorijiy mamlakatlarda berilgan ta'lim to'g'risidagi hujjatlarni e'tirof

etish va nostrifikatsiyalash (tengligini aniqlash) tartibi amalga oshirilishini tashkil etish va ta'minlash [2].

2017-yil 17-iyulda Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida" 508-son qarori qabul qilinib, ta'lim tizimida pedagogik o'lchovlar sohasini rivojlantirishda muhim bosqich bo'ldi. Mazkur qaror bilan Davlat test markazining asosiy vazifalari aniq belgilandi va quyidagi yo'nalishlarga qaratildi:

- ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish jarayonida test sinovi orqali tanlab olish tamoyilini amalga oshirish orqali davlat siyosatini izchil tatbiq etish;

- test sinovlari natijalarining validligi, ishonchliligi va adolatliligini ta'minlash;

- test materiallari bazasini tizimli ravishda shakllantirish va doimiy yangilab borish;

- pedagogik o'lchov vositalarini takomillashtirish, ularning psixometrik sifatini oshirish;

- test sinovlarini tashkil etish, o'tkazish va butun jarayonni muvofiqlashtirish;

- test materiallarini nashr etish va tarqatish;

- test sinovlari natijalarini chuqur tahlil qilish va statistik-psixometrik baholash;

- chet tillarini bilish darajasini baholashning milliy test tizimini rivojlantirish [3].

2018-yil 20-fevralda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 130-sonli qarori qabul qilindi.

Ushbu normativ-huquqiy hujjat mamlakat ta'lim tizimida pedagogik o'lchovlar va ta'limda baholash jarayonlarini institutsional jihatdan mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Ushbu qarorga muvofiq, Davlat test markazi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishda test sinovi orqali tanlab olishga oid davlat siyosatini amalga oshiruvchi yagona vakolatli davlat boshqaruvi organi etib belgilandi. Markazning asosiy vazifalari esa quyidagi yo'nalishlarga qaratildi:

- ta'lim muassasalariga qabul jarayonida test sinovlarini tashkil etish, o'tkazish, natijalarini tahlil qilish va rasmiy e'lon qilish;
- test texnologiyalarini ilmiy asosda rivojlantirish va zamonaviy standartlarga moslashtirish;
- pedagogik o'lchov vositalarini takomillashtirish, ularning psixometrik xususiyatlarini oshirish;
- umumta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning milliy test tizimini tizimli rivojlantirish;

- rahbar kadrlar va mas'ul lavozimlarga tayinlanadigan shaxslarning davlat tilini bilish darajasini aniqlash, shuningdek ularga davlat tilini bilish bo'yicha tegishli daraja sertifikatini berish.

Ushbu qaror 2017-yildagi 508-sonli qarorni rivojlantirgan va to'ldirgan holda, Davlat test markazi faoliyatini yanada professional va ilmiy yo'nalishda takomillashtirishga asos bo'ldi. Natijada Markaz nafaqat qabul jarayonlarini boshqaruvchi tashkilot, balki test materiallari bazasini shakllantirish, testning xususiyatlarini tahlil qilish, milliy baholash tizimlarini xalqaro standartlarga yaqinlashtirish va ta'lim sifatini obyektiv monitoring qilish markaziga aylandi [4].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2022-yil 21-dekabrda PF-269-son Farmoni bilan Vazirlar Mahkamasini huzuridagi Davlat test markazi negizida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi tashkil etildi [5].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" 2023-yil 25-yanvardagi PF-14-son Farmoniga asosan Bilim va malakalarni baholash agentligi Davlat test markazining tegishli huquq va

majburiyatlari bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanadi [6].

Hozirgi kunda Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan 50 dan ortiq turdagi imtihonlar tashkil etiladi. Jumladan:

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilarning jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarligini baholash imtihonlari;

umumta'lim (biologiya, kimyo, matematika, fizika, tarix, geografiya, ona tili va adabiyot, rus tili va adabiyot, qoraqalpoq tili va adabiyot) fanlari bo'yicha umumta'lim fanlarni bilish darajasini aniqlash imtihonlari (9 ta fan asosida);

to'rtta ko'nikma bo'yicha chet tilini bilish darajasini aniqlash imtihonlari (16 ta xorijiy til asosida);

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasining bakalavriat ta'lim yo'nalishiga o'qishga qabul qilish bo'yicha maxsus psixologik tanlov va yozma imtihon (diktant);

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa-harbiy institutining bakalavriat ta'lim yo'nalishiga o'qishga qabul qilish uchun test sinovlari;

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Harbiy tibbiyot akademiyasiga va Qurolli Kuchlar akademiyasining psixologiya (harbiy psixologiya) ta'lim yo'nalishiga o'qishga qabul uchun test sinovlari;

davlat oliy ta'lim tashkilotlarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga o'qishga qabul qilish bo'yicha test sinovlari;

oliy ta'lim tashkilotlari huzuridagi akademik litseylarga o'qishga qabul bo'yicha imtihonlar;

ichki ishlar vazirligi tasarrufidagi akademik litseylarga o'qishga qabul qilish uchun test sinovlari;

"Temurbeklar maktabi", "Yosh chegarachilar" va Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litseylarga o'qishga qabul qilish uchun test sinovlari;

"Temurbeklar maktabi", "Yosh chegarachilar" va Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litseylar o'quvchilari o'rtasida fan olimpiadasi;

xorijiy va nodavlat ta'lim tashkilotlaridan O'zbekiston Respublikasidagi davlat oliy ta'lim tashkilotlarining mos va turdosh ta'lim yo'nalishlariga o'qishni ko'chirish bo'yicha imtihonlar;

Jamoat xavfsizligi universiteti, Fuqaro muhofazasi instituti, Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi, Bank-moliya akademiyasi, Huquqni muhofaza qilish akademiyasi, Sudyalilar oliy maktabi hamda Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasining magistraturasiga o'qishga qabul qilish bo'yicha test sinovlari;

xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik haqidagi hujjatlarni tan olish bo'yicha imtihonlar;

Ichki ishlar organlariga ishga kirish uchun saralash test sinovlari;

Shaharsozlik va uy-joy kommunal xo'jaligi sohalari mutaxassislarini sertifikatlash imtihonlari;

Milliy statistika qo'mitasi tizimidagi statistika faoliyati bilan shug'ullanuvchi xodimlar uchun test sinovlari;

"El-yurt umidi" jamg'armasi ochiq stipendiya tanlovining test sinovi bosqichi;

rahbar kadrlar va mas'ul lavozimlarga tayinlanadigan shaxslarning davlat tilini bilish darajasini aniqlash imtihonlari;

oliy ta'lim tashkilotlarining qo'shma ta'lim dasturlariga qabul

uchun chet tillari bo'yicha test sinovlari;

oliy ta'lim tashkilotlarining buyurtmalariga asosan ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limga o'qishga qabul qilish bo'yicha imtihonlar;

Davlat xavfsizlik xizmati akademiyasi bakalavriatiga o'qishga qabul qilish uchun dastlabki saralash imtihonlari.

Respublikada faoliyat yuritayotgan xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari va ularning filiallari hamda nodavlat oliy ta'lim tashkilotlariga ajratilgan davlat granti asosidagi qabul parametrlari uchun test sinovlari kabi imtihonlar o'tkazib kelinmoqda.

## 2. Oliy ta'lim tashkilotlariga qabul imtihonlaridagi islohotlar

Davlat test markazi oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalariga qabul test sinovlarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha asosiy vakolatli organ sifatida belgilandi.

Test tizimi 1992-yilda ikki variantli model hamda cheklangan hajmdagi test materiallaridan tashkil topgan universal savollar kitobi bilan boshlangan. 1993-yilda mavjud 46 ta oliy ta'lim muassasasining 19 tasida tajriba tariqasida test sinovlari o'tkazilgan. Testlar paralel ikki (A, B) variantli bo'lib, kunduzgi va kechki bo'limlar uchun ona tili, matematika, ijtimoiy fanlar – tarix va geografiya, xorijiy tillar fanlaridan 48 tadan test

topshirig'i, tabiiy fanlar – fizika, geografiya, kimyo fanlaridan 72 ta test topshirig'i bo'lgan.

O'rta maxsus o'quv yurtlarida test sinovlari natijalari bo'yicha abituriyentlar tanlash 1994-yilda ayrim o'rta maxsus o'quv yurtlariga, 1995-yildan boshlab esa idoraviy bo'ysunuvidan qat'i nazar, barcha o'rta maxsus o'quv yurtlariga joriy etildi [7].

1995-yilda testlar paralel uch (A, B, C) variantli bo'lib, ona tili, matematika, fizika, kimyo, biologiya, tarix, geografiya, xorijiy tillar, o'zbek tili, rus tili fanlaridan 36 tadan test topshirig'i bo'lgan.

1996-yilda oliy va oʻrta maxsus oʻquv yurtlari qabuli jarayonidagi test sinovlarida test topshiriqlari variantlarini taʼlim yoʻnalishlari, mutaxassisliklar va taʼlim tillari boʻyicha kompyuter yordamida generatsiyalash (tuzish)ga asoslanuvchi yangi, koʻp variantli test tizimi yaratildi [7].


2009-yilda 80 ta har bir tipdagi savollar kitobi uchun 30 tadan paralel variant joriy etildi.

2010-yilda har bir abituriyent uchun muqobil javoblari generatsiyasi individual boʻlgan paralel variantli test tizimiga oʻtildi.

2017-yil 17-noyabrda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublika oliy taʼlim muassasalari bakalavriatiga kirish test sinovlarini oʻtkazish tartibini takomillashtirish toʻgʻrisida”gi PQ-3389-son qarori qabul qilinib, davlat oliy taʼlim

tashkilotlariga qabul imtihonlarini oʻtkazishda tub islohotlar boshlandi [8].

Ushbu qarorga asosan 2018-2019-oʻquv yilidan boshlab oliy taʼlim muassasalariga oʻqishga qabul qilish boʻyicha test sinovlari Toshkent shahrida “Oʻzekspomarkaz” Milliy koʻrgazmalar majmuasi pavilyonlari hamda uning hududida oʻrnatiladigan qoʻshimcha yigʻma pavilyonlarda, shuningdek, katta sigʻimdagi boshqa binolarda yoki turli tashkilotlarning katta sigʻimdagi binolarida oʻtkazilishi belgilandi. Hozirgi kunda test sinovlarini oʻtkazish uchun Oʻzbekiston Respublikasining 11 ta viloyati va Qoraqalpogʻiston Respublikasida zamonaviy koʻp sigʻimli binolar qurib bitkazildi va test sinovlari oʻtkazilmoqda (1-rasm).



1-rasm. Bilim va malakalarni baholash agentligining test sinovlarini tashkil etish va oʻtkazish uchun muljallangan katta sigʻimdagi binolari

Test oʻtkazish jarayonlarining toʻliq videokuzatuv ostida oʻtkazilishi hamda onlayn translyatsiya qilinishi keng jamoatchilik, shu jumladan, abituriyentlar va ularning ot-onalariga test sinovlarini onlayn

rejimda kuzatib borish imkoniyatini yaratdi. Shuningdek, test sinovi natijalarini bir kun ichida eʼlon qilish amaliyoti yoʻlga qoʻyilganligi ham tashkilot faoliyatidagi muhim qadamlardan biri hisoblanadi.

2019-yilgacha abituriyentlar test sinovlari natijasi bilan faqat bitta oliy ta'lim muassasasining bitta ta'lim yo'nalishi tanlovida qatnashish huquqiga ega edilar. 2019-yilda amalga oshirilgan islohot natijasida, 2019 – 2020-o'quv yilidan boshlab abituriyentlarga uchtagacha oliy ta'lim muassasasini va shunga mos ta'lim yo'nalishlarini tanlash imkoniyati joriy etildi. Bu esa abituriyentlarning tanlov imkoniyatini oshirdi hamda oliy ta'lim muassasalariga bilim darajasi yuqori bo'lgan abiturintlarni qabul qilish imkoniyatini yaratdi.

2020-yilda O'zbekiston oliy ta'limga qabul jarayonlarida raqamlashtirish va liberallashtirish yo'nalishidag islohotlar davom ettirildi. Xususan, 2020 – 2021-o'quv yili qabulidan boshlab abituriyentlarga ro'yxatdan o'tishda beshtagacha oliy ta'lim muassasasini va shu muassasalarning fanlar majmuasi mos keladigan besh tagacha ta'lim yo'nalishini tanlash huquqi berildi. Ushbu o'zgartirish abituriyentlarning strategik tanlov imkoniyatlarini sezilarli darajada oshirdi va qabul natijalarida yuqori samaradorlikni ta'minladi.

Shuningdek, 2020-yildan boshlab oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun an'anaviy (oflayn) hujjat topshirish tartibi butunlay bekor qilindi va to'liq


elektron (onlayn) ro'yxatdan o'tkazish tizimi joriy etildi. Ushbu tizim yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) va Bilim va malakalarni baholash agentligining rasmiy veb sayti orqali amalga oshirildi. 2020-yilda joriy etilgan onlayn ro'yxatdan o'tkazish va ko'p variantli tanlov tizimi qabul jarayonining shaffofligini, qulayligini va samaradorligini tubdan oshirdi hamda pandemiya sharoitida xavfsiz va masofaviy tarzda tashkil etish imkonini berdi.

Ro'yxatdan o'tgan abituriyentlar shaxsiy kabinetida "Abituriyent ruxsatnomasi"ni elektron shaklda yuklab olish huquqiga ega bo'ldilar va bu hujjat test sinovlariga kirish uchun yagona rasmiy identifikatsiya vositasi sifatida ishlatildi.

Shuningdek, tizimning to'liq raqamlashtirilishi:

test sinovlari yakunlan-ganidan so'ng (ko'pincha keyingi kuni) natijalarni shaxsiy kabinet orqali real vaqtda olish;

yakuniy tanlov (davlat granti yoki to'lov-kontrakt asosida qabul qilish) natijalari hisoblangandan keyin tavsiya etilgan o'quv joyi va yo'nalishi haqida tezkor ma'lumot olish hamda tegishli hujjatlarni yuklab olish imkoniyatlarini ta'minladi.



2- rasm. Abituriyentlar test topshirish hududlari

Shu bilan birga oliy ta’lim muassasalariga qabul jarayonida abituriyentlar uchun test sinovlarini o’tkazish hududini erkin tanlash imkoniyati joriy etildi. Ya’ni abituriyent yashash joyi yoki o’qishni rejalashtirayotgan oliy ta’lim muassasasidan qat’i nazar, O’zbekiston Respublikasining istalgan hududi (Qoraqalpog’iston Respublikasi, viloyatlar markazlari yoki Toshkent shahri)ni tanlab, o’ziga qulay bo’lgan joyda test sinovlarida ishtirok etish huquqiga ega bo’ldilar (2-rasm).

2020-yildan test sinovi natijalarini e’lon qilish mexanizmi tubdan takomillashtirildi. Test sinovlari o’tkazilgan kundan keyingi kun abituriyentlarning javob varaqalari rangli skanerlash orqali raqamlashtirilib, shaxsiy kabinetiga (abitur.dtm.uz platformasi orqali)

joylashtirila boshlandi. Ushbu raqamlashtirilgan javob varaqasi bilan birgalikda abituriyentga:

har bir savol bo’yicha (to’g’ri/noto’g’ri javob berilganligi haqida);

umumiy to’plangan ball haqida ma’lumotlar taqdim etildi (3-rasm).

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim muassasalariga test sinovlari orqali qabul qilish tizimini takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida” 2019-yil 14-maydagi PQ-4319-son qarori bilan 2021-2022-o’quv yili qabulidan boshlab oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat ta’lim yo’nalishlariga kirish test sinovlarida qo’llaniladigan fanlar majmuasi ikki bo’limga ajratildi.

Umumiy balli: 72.40

**JAVOBLAR VARAQASI**

**ABITURIYENT DIQDQSHIM**

1. SHARHI (HACDQNDI FIKRATLI) HESOBQNDAN FQYDALANING

2. HAR BIUR TEST TOPSHIRIQIDQI JAVOBLAQNDAN FQYAT BQTASIN BELGILQNG

**BYIRIMANQIQO ABITURIYENTQA!**

1. AQDOLQVQTE, SAHQIQO SHARHQBQNDI FIKRQ

2. K KQBQSDQY, TESTQBQVQY QZADQNIQ OTMETIT'YE, TO'G'RIKO QDIN OTMET'

**DQRQBCHQB BO'YASH NQMUNAQSI / QIBQBZELI QAPQBQBQBQBQY QURQBQBQV**

Yil: \_\_\_\_\_

NBox: 20277 17 TIP: 2204

Test kuni: \_\_\_\_\_ Smena: 1

Hudud: \_\_\_\_\_

Bino: 3 Guruh: 40 O'tirish o'rni: 17

\_\_\_\_\_

**Majburiy fanlar**  
1.1

1-30: [Bubble grid]

**Davlat va huquq asoslari**  
3.1

31-40: [Bubble grid]

**Ingliz tili**  
2.1

41-60: [Bubble grid]

**Chet tili**  
Иностранный язык

Test topshiriqlari kitobning raqami / Номер книги и тестовых заданий

1008294

**Abituriyent tomonidan to'ldiriladi!**  
Заполняется абитуриентом!

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

**TEST SINQVIDAN CHETLASHTRISH DALQLATNQMASI / АКТ QD OTQBTRQBENIQ OT TESTQBQVYQ IQBQBQBQNY**

(Chetlashtrish sadi va kabi) / Форма и причина отстранения

1) \_\_\_\_\_

2) \_\_\_\_\_

1. B ×	31. C ✓	61. A ✓
2. A ×	32. B ×	62. B ×
3. C ✓	33. D ✓	63. A ×
4. A ×	34. C ×	64. B ×
5. B ×	35. C ×	65. A ×
6. D ×	36. D ×	66. C ×
7. C ✓	37. C ✓	67. A ✓
8. C ×	38. A ×	68. B ×
9. D ✓	39. D ✓	69. A ✓
10. A ✓	40. B ×	70. C ×
11. B ✓	41. C ✓	71. C ✓
12. B ×	42. B ×	72. B ✓
13. C ×	43. A ✓	73. C ×
14. B ✓	44. A ×	74. B ×
15. C ×	45. D ✓	75. B ×
16. B ×	46. C ×	76. A ✓
17. C ×	47. D ×	77. B ✓
18. C ✓	48. B ×	78. B ×
19. B ×	49. C ×	79. C ×
20. B ×	50. A ✓	80. B ×
21. B ✓	51. B ✓	81. B ✓
22. B ×	52. B ✓	82. C ✓
23. A ✓	53. B ×	83. B ✓
24. B ×	54. B ×	84. B ×
25. C ×	55. D ✓	85. B ×
26. D ×	56. C ×	86. C ×
27. B ✓	57. D ×	87. B ✓
28. D ×	58. D ×	88. B ×
29. C ✓	59. B ×	89. B ×
30. B ×	60. C ✓	90. B ×

3-rasm. Abituriyentning javoblar varaqasi va test natijasi

Birinci bo'lim barcha abiturientlar uchun majburiy bo'lib, uchta:

- ona tili va adabiyoti (o'zbek, rus yoki qoraqalpoq tili – ta'lim tili bo'yicha);
- matematika;
- O'zbekiston tarixi fanlaridan iborat bo'ldi.

Ikkinchi bo'lim esa abiturient tomonidan tanlangan bakalvriat ta'lim yo'nalishiga muvofiq ikkita mutaxassislik fanidan iborat bo'ldi.

Bundan tashqari, 2021-yil abiturientlarga o'zlarining test natijalari bilan birgalikda boshqa abiturientlarning ham natijalarini real vaqtda onlayn kuzatib borish imkoniyati joriy etildi. Ushbu funktsiya shaxsiy kabinet orqali ta'minlanib, qabul jarayonining shaffofligi va ochiqligini sezilarli darajada oshirib, abiturientlar va ularning ota-onalari tomonidan natijalarni mustaqil monitoring qilish imkonini yaratdi (4-rasm).

Shuningdek, abituriyentlarga tanlov ustuvorligini tanlash huquqi berildi. Bunda abituriyentga **“Davlat granti”** ustuvorligini yoki **“Ta’lim yo’nalishi”** ustuvorligini tanlash imkoniyati yaratildi.

**“Davlat granti”** ustuvorligi – abituriyentlarga barcha tanlagan yo’nalishlarida avval davlat granti tanlovida, so’ngra to’lov-kontrakt asosida o’qish tanlovida qatnashish imkonini beradi.

Bu imkoniyat abituriyentga yuqori ball bilan davlat granti asosida o’qish imkoniyatini oshiradi. Bu tizim abituriyentga birinchi navbatda grant asosida tahsil olishni ta’minlash uchun qulay hisoblanadi. Ammo abituriyent test natijalari asosida to’plagan bali davlat granti tanlovida yetarli bo’lmasa to’lov-kontrakt bo’yicha tanlov amalga oshiriladi (5-rasm (a)).

Abituriyent ID raqami	F.I.SH	Yo’nalish	Oliy ta’lim muassasasi	To’plagan ball	Ta’lim tili	Ta’lim shakli	Batafsil
4776203	[Redacted]	Axborot xavfsizligi (sohalar bo’yicha)	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti	176,4	O’zbekcha	Kunduzgi	Batafsil
4763338	[Redacted]	Axborot xavfsizligi (sohalar bo’yicha)	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti	175,2	O’zbekcha	Kunduzgi	Batafsil
5155872	[Redacted]	Axborot xavfsizligi (sohalar bo’yicha)	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti	174,9	O’zbekcha	Kunduzgi	Batafsil
4774472	[Redacted]	Axborot xavfsizligi (sohalar bo’yicha)	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti	174	O’zbekcha	Kunduzgi	Batafsil
4760331	[Redacted]	Axborot xavfsizligi (sohalar bo’yicha)	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti	173,3	O’zbekcha	Kunduzgi	Batafsil
5191919	[Redacted]	Axborot xavfsizligi (sohalar bo’yicha)	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti	173,1	O’zbekcha	Kunduzgi	Batafsil
4840422	[Redacted]	Axborot xavfsizligi (sohalar bo’yicha)	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti	173	O’zbekcha	Kunduzgi	Batafsil
4503092	[Redacted]	Axborot xavfsizligi (sohalar bo’yicha)	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti	172,9	O’zbekcha	Kunduzgi	Batafsil
4842949	[Redacted]	Axborot xavfsizligi (sohalar bo’yicha)	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti	172,9	O’zbekcha	Kunduzgi	Batafsil
5293942	[Redacted]	Axborot xavfsizligi (sohalar bo’yicha)	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti	172,9	O’zbekcha	Kunduzgi	Batafsil

Sahifa: 2 | Joriy sahifadagi ma’lumotlar soni: 10 | Barcha topilgan ma’lumotlar soni: 2681 Konkurs: 35,7

- Imtiyoz mavjud
  - Davlat granti
  - To’lov shartnoma
  - Tavsiya etilmagan
  - Bu yo’nalishda tavsiya etilmadi
  - Test sinovlaridan chetlashtirilgan

4-rasm. Abituriyentlarning test natijalari

**“Ta’lim yo’nalishi”** ustuvorligi — abituriyent tanlagan 5 tagacha ta’lim yo’nalishning har birida avval davlat

grantini, keyin esa to’lov-kontrakt asosida ketma-ketlikda tanlovda ishtirok etadi. Bunda o’tish ballari

davlat grantiga yetarli bo'lmasa, o'sha ta'lim yo'nalishining to'lov-kontraktiga tanlovda ishtiror etadi. Shundan so'ng keyingi yo'nalishga o'tish yuz beradi (5-rasm(b)).

2022 – 2023-o'quv yili qabulidan boshlab abituriyentlarga tanlangan ta'lim yo'nalishlarini turli ta'lim shakllari (kunduzgi, kechki, sirtqi va masofaviy) doirasida bir vaqtning o'zida tanlash imkoniyati yaratildi. Natijada abituriyentlar o'z shaxsiy va iqtisodiy sharoitlariga mos ravishda mos-lashuvchan tanlov qilish huquqiga ega bo'ldilar.

2024-yil 24-mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish to'g'risida" PF-81-son Farmoni qabul qilinib 2024-2025-o'quv yili qabulidan boshlab davlat oliy ta'lim muassasalari va professional ta'lim muassasalariga (kasb-hunar maktablari bundan mustasno) qabul qilish jarayoni tubdan isloh qilindi. Xususan, qabul imtihonlari "avval test, so'ng tanlov" tamoyiliga muvofiq bir vaqtning o'zida o'tkazilishi belgilandi. [10].


Unga ko'ra davlat oliy ta'lim muassasalari bakalavriatiga qabul

uchun abituriyentlarni ro'yxatga olish jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshirila boshladi:


birinchi bosqichda abituriyentlar har yili 5-iyundan 25-iyunga qadar (25-iyun kuni ham) test sinovi topshirish uchun ro'yxatdan o'tadi hamda test sinovi topshiriladigan fanlar majmuasi, ta'lim tili va test topshirish hududini hamda kirish imtihonlari tarkibida kasbiy (ijodiy) imtihon bo'lsa, davlat oliy ta'lim muassasasini tanlaydi.

ikkinchi bosqichda abituriyentlar test sinovlari to'liq yakunlanganidan so'ng 15 kun davomida oliy ta'lim muassasasi, bakalavriat ta'lim yo'nalishi va ta'lim shaklini tanlaydi (6-rasm).

Islohotlardan yana biri – bu fanlar majmuasida chet tili birinchi fan sifatida belgilangan ta'lim yo'nalishlariga qabul xorijiy tilni bilish darajasini tasdiqlovchi milliy yoki xalqaro tan olingan sertifikat asosida amalga oshirila boshlangani bo'ldi. Ushbu tartib O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi PF-81-son Farmoni bilan tasdiqlangan bo'lib, tegishli yo'nalishlarda chet tili bo'yicha test sinovi o'tkazilmaydi.



5-rasm. Tanlov abituriyent ta'lim yo'nalishlarining qat'iy ketma-ketligi bo'yicha tanlangan ustuvorlik (“**Davlat granti**” (a) yoki “**Ta'lim yo'nalishi**” (b)) asosida amalga oshirilishi.



6-rasm. “Avval test, so'ng tanlov” tamoyili asosida abituriyentlarning oliy ta'lim muassasalariga qabul qilish bosqichlari

Abituriyentlar ro'yxatdan o'tish bosqichida belgilangan minimal darajadagi sertifikatni taqdim etishlari shart qilib belgilandi. Mazkur islohot xorijiy tillarni o'qitish va o'rganish

sifatini oshirish, abituriyentlarning til ko'nikmasini xalqaro va milliy standartlar asosida obyektiv baholash, shuningdek, oliy ta'limning xalqaro integratsiyasini kuchaytirishga qaratil-

gan. Sertifikat talabi faqat chet tili birinchi fan sifatida ko'rsatilgan yo'nalishlarga nisbatan qo'llaniladi; boshqa yo'nalishlarda chet tili ikkinchi fan bo'lsa, test sinovi saqlanib qoladi.

2025-2026-o'quv yili qabulidan boshlab esa fanlar majmuasida chet tili birinchi fan sifatida belgilangan ta'lim yo'nalishlariga qabul xorijiy tilni bilish darajasini belgilovchi milliy yoki xalqaro sertifikat asosida amalga oshirila boshladi.

### 3. Chet tilini bilish darajasini aniqlash imtihonlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2012-yil 10-dekabrda PQ-1875-son qarori bilan Davlat test markazi tarkibida maxsus chet tillarni bilish va egallash darajasini baholash boshqarmasi tashkil etildi [11].

Ushbu qaror bilan mamlakatda chet tillarni bilish darajasini standartlashtirilgan va rasmiy baholash hamda sertifikatlash tizimi ilk bor joriy etildi. Bu tizim xorijiy tillarni o'rganish sifatini oshirish, o'quv natijalarini obyektiv baholash va xalqaro ta'lim hamda mehnat bozorida tan olinadigan sertifikatlar berishga xizmat qildi. Hozirgi vaqtda Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan 16 ta chet tili bo'yicha milliy

Qayd etish kerakki, oliy ta'lim tashkilotlariga qabul uchun o'tkaziladigan test sinovlari 16 ta umumta'lim fanlari bo'yicha 7 ta ta'lim tilida va 15 ta xorijiy tillarda amalga oshiriladi. Ushbu yondashuv qabul jarayonining moslashuvchanligini, inklyuzivligini va shaffofligini yanada oshirib, abituriyentlarga talim olgan tiliga mos variantlarni tanlash imkonini beradi.


sertifikat imtihonlari muntazam o'tkazib kelinmoqda. Ularning 5 tasi ko'p darajali (multilevel) formatda, 11 tasi esa har bir daraja uchun alohida formatda o'tkaziladi (7-rasm).

2025-yilning 1-yarim yilligida 16 ta chet tili bo'yicha milliy sertifikat imtihonlarida jami 235 ming nafardan ortiq talabgorlar test sinovlarida ishtirok etganligini ta'kidlab o'tish lozim.

Imtihonlar barcha talabgorlar uchun 4 ta ko'nikma, jumladan:

- tinglab tushunish;
- o'qish;
- yozish;
- gapirish

bo'yicha tashkil etilmoqda [12-13].



7-rasm. Chet tilini bilish darajasi bo'yicha milliy sertifikat formatlari

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 3-dekabrda PQ-4910-son qaroriga muvofiq Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan akademik litsey bitiruvchilari uchun chet tilini bilish darajasini aniqlash va malaka sertifikati berish imtihonlari yo'lga qo'yilgan [12].

Mazkur qarorga asosan akademik litsey bitiruvchilari uchun har yili bir marotaba, to'rtinchi chorakda, bepul chet tili imtihonlari tashkil etiladi. Ushbu amaliyot natijasida litsey bitiruvchilarining til bo'yicha ko'nikmalari baholanib, ularning oliy ta'lim muassasalariga kirish imkoniyatlari kengaytirildi.

Bundan tashqari, nogironligi bo'lgan shaxslar (I va II guruh), shuningdek, nogironligi bo'lgan bolalar uchun barcha bo'limlarni o'z ichiga olgan holda maxsus bir bosqichli

elektron imtihon tizimi joriy etildi. Ushbu tizim orqali jismoniy imkoniyati cheklangan talabgorlar uchun qulay va adolatli sharoitlar yaratildi.

Mazkur tizim asosida ko'zi ojiz shaxslar uchun ham alohida format ishlab chiqilgan bo'lib, unda talabgorlarning tinglab tushunish va gapirish ko'nikmalari orqali chet tilini bilish darajasini baholash yo'lga qo'yildi.

Mazkur toifadagi 151 nafar talabgor imtihon sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tdi va belgilangan tartibda sertifikatga ega bo'ldi.

Bilim va malakalarni baholash agentligida kelgusida ham baholash jarayonlarini xalqaro tan olingan tizimlar (IELTS, TOEFL, DELF, TOPIK va boshqalar) bilan muvofiqlashtirish ishlarini davom ettirishni maqsad qilgan.

Chet tillarini o'rganish va baholash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar O'zbekiston Respublikasi fuqarolarga mamlakat

hududini tark etmagan holda xalqaro darajada tan olinadigan sertifikatlarni qo'lga kiritish imkoniyatlarini kengaytirishga, shuningdek, ta'lim tizimi

hamda mehnat bozorida til ko'nikmalariga asoslangan yondashuvni izchil rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

#### 4. Umumta'lim fanlarini bilish darajasini aniqlashning milliy test tizimi

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida ta'lim sifatini oshirish va bilimlarni baholash tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur jarayonda umumta'lim fanlari bo'yicha o'quvchilarning bilim darajasini obyektiv, shaffof va ishonchli baholash masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 12-oktabrdagi "Umumta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning milliy test tizimini joriy etish to'g'risida"gi 646-son qarori qabul qilinib, unga muvofiq 2020-yil 1-dekabrda boshlab bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga mos fanlar majmuasi doirasida umumta'lim fanlari bo'yicha bilim darajasini aniqlashning milliy test tizimini bosqichma-bosqich joriy etish belgilandi [14].

Ushbu tizim ta'lim jarayonida baholashning yagona mezonlarini shakllantirish hamda oliy ta'limga qabul jarayonida adolat va ochiqlikni ta'minlashga xizmat qilib kelmoqda. Hozirda 9 ta umumta'lim fanidan milliy

sertifikat imtihonlari tashkil etiladi va o'tkaziladi (8-rasm).

2025-yilning birinchi yarmida 9 ta umumta'lim fanlari bo'yicha tashkil etilgan milliy sertifikat imtihonlarida 300 ming nafarga yaqin talabgor ishtirok etganligini ta'kidlab o'tish lozim.

2024-yilgacha umumta'lim fanlari bo'yicha milliy sertifikat imtihonlarida talabgorlarning natijalarini xom ball bilan baholash orqali amalga oshirilgan. Mazkur yondashuvda test sinovi yakuniy natijalari maksimal ballga nisbatan foiz ko'rsatkichlari orqali baholanib, belgilangan chegaraviy mezon — ya'ni eng yuqori ballning kamida 60 foizini to'plagan talabgorlarga uch yil muddat amal qiluvchi sertifikatlar berilgan. Ushbu baholash modeli test topshiriqlarining qiyinlik darajasi va turli darajadagi bilim va ko'nikmaga ega bo'lgan talabgorlarni bir-biridan aniq va ishonchli ajrata olish qobiliyatini cheklashi bilan bir qatorda, baholash natijalarining aniqligi va solishtiriluvchanligini ta'minlashda muayyan metodologik cheklovlarga ega bo'lgan.



8-rasm. Umumta’lim fanidan milliy sertifikat imtihonlari

Bunda, eng yuqori ballning 60 foizidan 85 foizigacha natija qayd etgan abituriyentlarga sertifikatda ko‘rsatilgan o‘zlashtirish darajasiga mutanosib ravishda oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga qabul qilish bo‘yicha test sinovlarida mazkur fandan belgilangan maksimal ballga nisbatan tabaqalashtirilgan ball berilgan, 86 foiz va undan yuqori natijaga erishgan abituriyentlarga esa mazkur fandan eng yuqori ball qo‘llanilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 12-oktabrdagi 646-son qarori bilan tasdiqlangan milliy test tizimining asosiy mezonlari va baholash tamoyillari keyingi yillarda bir qator o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan takomillashtirildi.

Ushbu normativ-huquqiy hujjatga kiritilgan o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar asosida, 2024–yildan boshlab imtihon natijalarini baholash jarayonida xalqaro miqyosda keng qo‘l-

laniladigan Rash modeli asosidagi baholash usuli rasman joriy etildi [14-21].

Test sinovi natijalariga ko‘ra talabgorlarga quyidagi oltita daraja bo‘yicha sertifikatlar beriladi:

- 70 ball va undan yuqori natija olgan talabgorlar uchun – **A+ daraja**;
- 65–69,9 ball olgan talabgorlar uchun – **A daraja**;
- 60–64,9 ball olgan talabgorlar uchun – **B+ daraja**;
- 55–59,9 ball olgan talabgorlar uchun – **B daraja**;
- 50–54,9 ball olgan talabgorlar uchun – **C+ daraja**;
- 46–49,9 ball olgan talabgorlar uchun – **C daraja**.

1. A+ va A darajali sertifikat olgan talabgorlar oliy ta’lim muassasasining bakalavriatiga qabul qilish bo‘yicha test sinovlarida ushbu fandan belgilangan maksimal ballga ega bo‘ladilar.

2. B+, B, C+ va C darajali sertifikat olgan talabgorlar esa mos

ravishda sertifikatdagi umumiy ballga nisbatan foiz asosida proporsional ravishda ball oladilar.

3. Darajasidan qat'iy nazar, milliy sertifikatga ega bo'lgan barcha abituriyentlarga majburiy fanlar bo'yicha belgilangan eng yuqori ball beriladi.

2025-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasida kimyo va biologiya fanlari bo'yicha milliy sertifikat imtihonlarining formatiga muhim yangilik kiritildi. Ushbu o'zgartirish yuqori darajadagi kognitiv jarayonlarni (tahlil qilish, sintez qilish, baholash va ijodiy fikrlash) obyektiv baholash maqsadida amalga oshirildi. Xususan, imtihon tarkibiga kengaytirilgan javobni talab qiluvchi ochiq turdagi test topshiriqlari (yozma ish qismi) qo'shildi.

Ushbu yozma ish qismi quyidagi xususiyatlarga ega:

- talabgorlardan mavzuni chuqur tahlil qilish, ilmiy dalillar

keltirish, jarayonlarni izohlash yoki muammolarni hal etish bo'yicha batafsil yozma javob berishni talab etadi;

- Blum taksonomiyasining yuqori darajalariga mos keladigan topshiriqlar yaratish imkonini beradi;

• an'anaviy yopiq va qisqa javobli ochiq savollardan farqli o'laroq, bu topshiriqlar abituriyentning ilmiy fikrlash, mantiqiy izchil yozuv va dalillar bilan ishlash qobiliyatini sinaydi;

- baholash mezonlari rasmiy ravishda tasdiqlangan bo'lib, javobning mazmuniy to'g'riligi, ilmiy aniqligi, tuzilishi, terminologik boyligi va mantiqiy izchilligi hisobga olinadi.

Yozma ish qismi aprobatsiyadan muvaffaqiyatli o'tdi va amaliyotga joriy qilindi. Ushbu o'zgarish umumta'lim fanlarini baholash tizimining sifatini tubdan yaxshilash yo'lidagi strategik qadam sifatida baholanmoqda.

## 5. Bilim va malakalarni baholash agentligining xalqaro hamkorlari

Bilim va malakalarni baholash agentligi o'z faoliyati doirasida ta'lim sohasida xalqaro standartlarni joriy etish va baholash tizimlarini takomillashtirishga katta e'tibor qaratib kelmoqda. Shu maqsadda agentlik baholash sohasida dunyoda yetakchi hisoblangan bir qator xalqaro tashkilotlar bilan muntazam hamkorlik

qiladi (1-jadval). Bu hamkorlik doirasida agentlik:

- baholash metodologiyalari va test topshiriqlarini ishlab chiqish va ilmiy, amaliy tajribalarni o'rganish;
- xalqaro standartlar asosida test va sertifikat tizimlarini ishlab chiqish va takomillashtirish;

- baholash jarayonlarini sifat jihatdan takomillashtirish va mutaxassislarni malakasini oshirish;
  - milliy baholash tizimini xalqaro tajribaga moslashtirish orqali talabgorlarning bilim va malakalarini obyektiv, shaffof va adolatli tarzda baholashni ta'minash
- kabi dasturlarni bajarib kelmoqda. Shu bilan birga, agentlikning bu yondashuvi milliy sertifikat tizimi sifatini oshirish, talabgorlarga nisbatan baholashning aniq va ishonchli mexanizmini yaratish hamda oliy ta'lim muassasalari uchun kadrlarni tanlash jarayonini optimallashtirishga xizmat qiladi.

*1-jadval*

**Bilim va malakalarni baholash agentligining Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi**

T/r	Davlat	Tashkilot
1	Buyuk Britaniya	Cambridge University Press and Assessment
2		Oxford University Press
3		AQA Global Assessment Services
4		Britaniya Kengashi
5	Niderlandiya	Cito
6	Ozarbayjon	Davlat imtihon markazi
7	Turkiya	Baholash, tanlash va joylashtirish markazi (ÖSYM)
8	Yaponiya	Kei Advanced
9	Qozog'iston	Milliy test markazi
10	Amerika qo'shma shtatlari	College Board
11		Educational Testing Service (ETS)
12		ITEP International
13		"SCANTRON" korporatsiyasi

## 6. Bilim va malakalarni baholash agentligi huzuridagi Ilmiy-o'quv amaliy markazi faoliyati

O'zbekiston ta'lim tizimida baholash sohasini professional va ilmiy asosda rivojlantirish yo'lidagi yana bir muhim qadam tashlandi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 17-sentabrdagi "Test tizimini takomillashtirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 562-son qarori bilan Davlat test markazi huzurida "Ilmiy-o'quv amaliy markazi" davlat muassasasi tashkil etildi hamda pedagogik o'lchovlar va baholash tizimlarini rivojlantirish bo'yicha strategik yo'nalishlar belgilandi. Ushbu qarorning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat bo'ldi [22]:

- pedagogik o'lchovlar sohasida mutaxassislar malakasini oshirish uchun muntazam kurslar va trening dasturlarini tashkil etish;
- xalqaro tajriba va eng yaxshi amaliyotlarni joriy etish maqsadida yetakchi xalqaro tashkilotlar, ilmiy markazlar bilan uzoq muddatli hamkorlikni yo'lga qo'yish;
- milliy test tizimining psixometrik sifatini, ishonchliligini va xalqaro standartlarga mosligini tubdan oshirish.

Mazkur qarorda Ilmiy-o'quv amaliy markazining:

- testologiya va pedagogik o'lchovlar sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish;

- testologiya va pedagogik o'lchovlar, chet tillari bo'yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish;

- pedagogik o'lchov vositalarini rivojlantirish;

- xorijiy tajribalarni o'rganish hamda milliy tizim yaratish va sohaga joriy qilish

kabi asosiy faoliyat yo'nalishlari belgilandi. Bundan tashqari Ilmiy-o'quv amaliy markazi o'z oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun quyidagi vazifalarni:

- test materiallarini ishlab chiqish va ularning sifatini baholash bo'yicha malakali mutaxassislar tayyorlash, mahalliy va xalqaro oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalarni yo'lga qo'yish, zamonaviy baholash metodologiyalariga asoslangan ta'lim dasturlari ishlab chiqish;

- shartnoma asosida pedagogik o'lchovlar va chet tillari bo'yicha qisqa va uzoq muddatli malaka oshirish kurslarini tashkil etish, shuningdek, tinglovchilar uchun diagnostik test sinovlarini o'tkazish markaz faoliyatining amaliy yo'nalishini tashkil etish;

- baholash va pedagogik o'lchovlar sohasida ilmiy izlanishlar olib boruvchi tadqiqotchilar uchun zarur ilmiy va tashkiliy

shart-sharoitlar yaratish, xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish hamda ushbu tajribalar asosida milliy baholash tizimini shakllantirish;


- xalqaro imtihon oluvchi tashkilotlar bilan hamkorlikda imtihonlarni tashkil etish va o'tkazish [23].

Yuqorida qayd etilgan vazifalar Ilmiy-o'quv amaliy markazining milliy baholash tizimini rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish va xalqaro baholash standartlarini joriy etishdagi muhim rolini belgilaydi.

Hozirgi kunda Ilmiy-o'quv amaliy markazi tomonidan bir qator nufuzli xalqaro imtihonlarni tashkil etish va o'tkazish ishlari amalga oshirilmoqda. Mazkur imtihonlar til bilish darajasi, akademik tayyorgarlik hamda peda-

gogik ko'nikmalarini xalqaro standartlar asosida baholashga xizmat qiladi. Jumladan, markaz tomonidan quyidagi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda imtihonlar o'tkazib kelinmoqda (9-rasm).

Mazkur xalqaro imtihonlarning muntazam o'tkazilishi til bilish darajasi, akademik tayyorgarlik hamda pedagogik ko'nikmalarni xalqaro standartlar asosida baholashga xizmat qilish bilan birga milliy baholash tizimini xalqaro baholash standartlari bilan uyg'unlashtirish, talabgorlarning bilim va ko'nikmalarini ob'ektiv baholash hamda ularning ta'lim va kasbiy faoliyatdagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.



9-rasm. Ilmiy-o'quv amaliy markazining xalqaro hamkorlari va o'tkaziladigan xalqaro imtihonlar

Ilmiy-o'quv amaliy markazi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda ta'lim sohasida baholash tizimlarini

takomillashtirish hamda pedagogik o'lchovlar sifatini oshirishga qaratilgan

quyidagi asosiy yoʻnalishlarda faoliyat olib bormoqda:

- chet tillarni bilish darajasini baholash tizimini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish;
- baholash jarayonlarida ishtirok etuvchi mutaxassislar uchun seminar va treninglar tashkil etish;
- pedagogik oʻlchov vositalarini ishlab chiqish va ularni ilmiy hamda amaliy ekspertizadan oʻtkazish;
- test topshiriqlari sifatini xalqaro mezonlar asosida muntazam monitoring qilib borish.

Shuningdek, hozirgi kunda Ilmiy-oʻquv amaliy markazi tomonidan 10 ga yaqin malaka oshirish kurslari yoʻlga qoʻyilgan boʻlib, ushbu kurslar orqali ikki ming nafarga yaqin pedagog kadrlarning malakasi oshirilgan. Mazkur faoliyat pedagog kadrlarning baholash sohasidagi kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda milliy baholash tizimini xalqaro tajriba bilan uygʻunlashtirishga xizmat qilmoqda.

### Xulosalar

Oʻzbekiston Respublikasida taʼlim sifatini baholash tizimini takomillashtirishga qaratilgan islohotlar bilimlarni xolis, ichonchli va adolatli baholashni rivojlantirishda muhim rol oʻynaydi.

Imtihon natijalarini baholashda xalqaro tajribalarning joriy etilishi chet tili va umumtaʼlim fanlaridan milliy sertifikat tizimining bosqichma-bosqich takomillashtirilishiga hamda baholash jarayonlarining shaffofligi va obyektivligini taʼminlashga xizmat qiladi.

Agentlik va Ilmiy-oʻquv amaliy markazining xalqaro baholash tash-

kilotlari bilan hamkorligi, pedagogik oʻlchovlar sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlari, malaka oshirish kurslari hamda kadrlar salohiyatini rivojlantirish yoʻnalishidagi faoliyati baholashning ilmiy asoslarini yaratadi.

Milliy baholash tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, taʼlim sifati monitoringini tizimli yoʻlga qoʻyish va baholash tizimida zamonaviy yondashuvlarni joriy etish baholashning obyektiv, shaffof va ishonchliligini taʼminlashga xizmat qiladi.

## ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 14-maydagi 258-son qarori "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Davlat test markazini tashkil etish to'g'risida" <https://lex.uz/docs/-726048>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 24-iyundagi 293-son qarori "Davlat test markazi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida". <https://lex.uz/uz/docs/-3566142>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 17-iyuldagi 508-son qarori "Davlat test markazi faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida". <https://lex.uz/uz/docs/-3566142?ONDATE=16.06.2022>
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 130-son qarori "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida" <https://lex.uz/uz/docs/-3566142>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda PF-269-son Farmoni "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" <https://lex.uz/docs/-6324756>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi PF-14-son Farmoni "Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yish chora-tadbirlari to'g'risida". <https://lex.uz/acts/-6369997>
7. <https://gov.uz/oz/uzbmb/pages/about>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 - yil 16- noyabr PQ-3389-son qarori "Respublika oliy ta'lim muassasalari bakalavriatiga kirish test sinovlarini o'tkazish tartibini takomillashtirish to'g'risida"
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-maydagi PQ-4319-son qarori "Oliy ta'lim muassasalariga test sinovlari orqali qabul qilish tizimini takomillashtirish to'g'risida". <https://lex.uz/ru/docs/-4414457>
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-may PF-81-sonfarmoni "Oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish to'g'risida" <https://lex.uz/ru/docs/-6937332>
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda PQ-1875-son qarori "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" <https://lex.uz/docs/-2126032>
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrda PQ-4910-son qarori "Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar

- faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"  
<https://lex.uz/ru/docs/-5141332?ONDATE2=04.07.2023&action=compare>
13. M.D. Ermamatov, M.D. Alimov, A.A. Sulaymonov, A.R. Sattiyev, Kalibrovkalangan test topshiriqlair: Sharq tillaridan o'tkazilgan test sinovi natijalarining statistik tahlili, Axborotnoma 3-4-son, 16-83 b., 2022.
  14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 12-oktabrdagi 646-son qarori "Umumta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning milliy test tizimini joriy etish to'g'risida" <https://lex.uz/docs/-5044726>
  15. Rash, G. (1960). Probabilistic Models for Some Intelligence and Attainment Tests. Copenhagen: Danish Institute for Educational Research.
  16. Baker, Frank (2001). The Basics of Item Response Theory, ERIC Clearinghouse on Assessment and Evaluation, University of Maryland, College Park, MD
  17. Hambleton, R.K., Swaminathan, H., & Rogers, H.J. (1991), Fundamentals of item response theory. Newbury Park, CA: Sage
  18. Wright, B. D., & Stone, M. H. (1979). Best test design. Chicago, IL: Mesa Press.
  19. M.D. Ermamatov, M.D. Alimov, A.A. Sulaymonov, A.R. Sattiyev, Kalibrovkalangan test topshiriqlair: Sharq tillaridan o'tkazilgan test sinovi natijalarining statistik tahlili, Axborotnoma 3-4-son, 16-83 b., 2022.
  20. M.D. Ermamatov, A. Abbosov, A.A. Baratov, Test topshiriqlarini kalibrovkalash va qobiliyatlarini tenglashtirish, , Axborotnoma 3-4-son, 4-16 b., 2022. 60 BULLETIN 1/2023
  21. M.Dj. Ermamatov, A.R. Sattiyev, D.M., Alimov, A.A. Baratov, A.A. Sulaymonov. Test topshiriqlari soninining, test natijariga ta'siri, Axborotnoma, 1-2-son, 30-39 b.
  22. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 17-sentabrdagi 562-son qarori "Test tizimini takomillashtirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" <https://lex.uz/docs/-5000821>
  23. M.P. Abdullayeva. Testlarni standartlashtirishda spetsifikatsiyaning roli. Bilim va malakalarni baholashda nazariy va amaliy yondashuvlar. Xalqaro ilmiy – amaliy konferensiya tezislari to'plami. 2025 yil 14 – oktyabr, 21-bet

## REFORMS IN THE AGENCY FOR ASSESSMENT OF KNOWLEDGE AND QUALIFICATIONS

**M.M. Karimov and J. Odilov**

*Agency for Assessment of Knowledge and Qualifications under the Ministry of Higher Education, Science and Innovation, Office for Assessment of Knowledge and Proficiency in Foreign Languages, 12 Bogishamol St., Tashkent, 100084*

**Abstract.** The article discusses reforms aimed at improving the education quality assessment system in the Republic of Uzbekistan, particularly the stages of development, goals, and objectives of the Agency for the Assessment of Knowledge and Skills, as well as the reforms implemented within its activities. It highlights the introduction of international best practices in the evaluation of examination results, the gradual improvement of the national certification system for foreign languages and general education subjects, and the measures taken to ensure transparency and objectivity in assessment processes.

In addition, the article describes the Agency's cooperation with international assessment organizations, its research activities in the field of educational measurement, professional development courses, and initiatives to enhance human resource capacity. The theoretical and practical significance of aligning the national assessment system with international standards, establishing systematic monitoring of education quality, and introducing modern approaches to assessment is emphasized.

**Keywords:** assessment system, Rasch model, national certificate, pedagogical measurements, international assessment, quality of education.

## MAKTAB BITIRUVCHILARINING ADABIYOT BO'YICHA BILIM VA KO'NIKMALARINI BAHOLASH: MILLIY VA XALQARO TAJRIBA QIYOSIY TAHLILI

**K.Q. Jalilov**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103-uy*

**Qisqacha mazmuni.** Baholashning ta'lim jarayoni ishtirokchilari xatti-harakatlariga ta'siri, ularning nimani va qanday o'rganishlari va o'rgatishlarini belgilashi – “washback” ta'siri ilmiy adabiyotlarda o'z isbotini topgan. Xususan, “yuqori qiymatga ega” (“high stakes”) deb qaraladigan imtihonlar ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilarga ta'sir ko'rsatish orqali ta'lim tizimiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Maqolada Bilim va malakalarni baholash agentligining ona tili va adabiyot fanidan milliy sertifikat (adabiyot qismi) mazmun-mundariyasi hamda baholanadigan konstruktlar A-level (Buyuk Britaniya, Singapur), AP (AQSH) va International Baccalaureate (IB Diploma Program) singari xalqaro kvalifikatsiyalarning mazmun-mundariyasi hamda baholanadigan konstruktleri bilan solishtiriladi va Milliy sertifikat tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar ilgari suriladi.

**Kalit so'zlar:** milliy sertifikat, adabiyot, yuqori qiymatga ega testlar, washback.

### 1. Kirish

Baholash ta'lim jarayoni va uning natijasiga ta'sir ko'rsatishi ilmiy adabiyotlarda o'z isbotini topgan. Xususan, natijalari baholanuvchi uchun muhim ahamiyat kasb etadigan, muhim qarorlar qabul qilish uchun ishlatiladigan imtihonlar (“yuqori qiymatga ega imtihonlar” – ing. “high stakes exams”) ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilarning xatti-harakatlariga hamda nimani va qanday o'rganish yoki o'qitish borasidagi qarorlariga kuchli ta'sir ko'rsatadi, bunday ta'sir esa ijobiy yoki salbiy

bo'lishi mumkin (1, 2). Shunday ekan, “yuqori qiymatga ega” imtihonlar nafaqat ta'lim oluvchilar yoki talabgorlarning o'zlashtirish darajasini aniqlash va saralash (tanlash) vositasi bo'lib xizmat qiladi, balki o'quv dasturlariga va pirovardida ta'lim sifatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu nuqtayi nazardan, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 12-oktyabrdagi 646-son qarori asosida Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan joriy etilgan Umumta'lim fanlarini bilish darajasini aniqlash

bo'yicha Milliy sertifikat uchun imtihonlar (3) ham "yuqori qiymatga ega" test deb qaralishi mumkin. Bu imtihonlarning "yuqori qiymat"ga egaligi, ya'ni test topshiruvchi uchun muhim ahamiyat kasb etishi ikki yo'nalishda ko'rinadi: birinchidan, sertifikatga ega bo'lgan abituriyentlarga oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarida tegishli fan bo'yicha maksimal yoki tabaqalashtirilgan ball berilishi va ikkinchidan, sertifikatga ega pedagog kadrlarning ish haqiga ustamalar qo'shilishi (4). Bunday rag'batlantirish mexanizmlari tabiiy ra-

vishda ushbu imtihonlarning ta'lim tizimiga ta'sirini oshiradi va ularning mazmun-mundarijasini o'zgartirish orqali tizimga ijobiy ta'sir o'tkazish imkonini beradi. Mazkur maqolada qo'lanilish sohasi o'xshash va Milliy sertifikatga muqobil sifatida qaralishi mumkin bo'lgan bir qator xorijiy imtihonlarning (A-level, AP, IB) mazmun-mundarijasi va ularda baholanadigan ko'nikmalar adabiyot fani misolida tahlil qilinadi va Milliy sertifikat mazmun-mundarijasini takomillashtirish bo'yicha takliflar ilgari suriladi.

## 2. Maktab bitiruvchilarining adabiy bo'yicha bilim va ko'nikmalarini baholashga xalqaro yondashuvlar tahlili

Buyuk Britaniyada maktab bitiruvchilari tomonidan topshiriladigan va bir qancha imtihon kengashlari (AQA, Pearson Edexcel, Cambridge OCR singari) tomonidan o'tkaziladigan A-level (Advanced Level) oliy ta'limga kirish uchun yetarli kvalifikatsiya sifatida nafaqat Buyuk Britaniya va Britaniya Hamdo'stligi mamlakatlari-da, balki dunyoning ko'plab mamlakatlarida tan olinadi. AQSHning College Board tomonidan taklif qilinadigan AP (Advanced Placement) imtihoni ham oliy ta'limga kirish huquqini beradigan kvalifikatsiya bo'lib, maktabning yuqori sinflarida tegishli fanni o'rgangandan keyin topshiriladi. Xalqaro miqyosda oliy ta'limga kirish kvalifikatsiyasi sifatida tan olinadigan yana bir imtihon shtabkvartirasi Jenevada joylashgan IBO

xalqaro notijorat tashkiloti tomonidan taklif qilinadigan IB (International Baccalaureate) Diploma Programme dasturi oxirida topshiriladi. Quyidagi 1-jadvalda mazkur imtihon dasturlarida adabiyot fanidan baholanadigan ko'nikmalar hamda test topshiriqlari turlari va shartlari solishtirilgan (5-9).

Quyidagi jadvaldan ko'rish mumkin, tahlil qilinayotgan tizimlarda maktab bitiruvchilarining adabiyot bo'yicha kompetensiyalarini baholashda har xil adabiy turlarga mansub asarlarni qamrab olishga harakat qilinadi va maktab bitiruvchisining matn tahlili bilan birga yozma argumentatsiya (fikrini izchil dalillash) kompetensiyasini ham o'lchash maqsadida kengaytirilgan javobni talab qiluvchi (esse tipidagi) ochiq test topshiriqlaridan keng foydalaniladi.

A-level, AP va IB DP xalqaro dasturlarining adabiyot bo'yicha imtihonlari qiyosiy tahlili

	<i>A-level</i>	<i>AP</i>	<i>IB DP</i>
<i>Baholanadigan ko'nikmalar</i>	<p>badiiy matnga nisbatan asosli, shaxsiy va kreativ javob shakllantirish</p> <p>badiiy matnda ma'no yaratish usullarini tahlil qilish</p> <p>badiiy matnning yaratilishi va qabul qilinishiga kontekstning ta'sirini tushunish</p> <p>badiiy matnlar o'rtasidagi bog'liqliklarni tahlil qilish</p> <p>matn interpretatsiyalarini tadqiq qilish</p>	<p>badiiy matnni tanqidiy tahlil qilish (obrazlar, vaziyat, struktura, roviy (muallif) nuqtayi nazari, badiiy til, interpretatsiya va argumentatsiya)</p>	<p>badiiy matnni, uning konteksti, badiiy elementlari va xususiyatlarini tahlil va talqin qilish</p> <p>til yordamida ma'no yaratilishini, badiiy tasvir vositalarining qo'llanilishi va ta'sirini, matnlar o'rtasidagi bog'liqliklarni va badiiy matnning insoniyatni qiziqtirgan masalalar bo'yicha turfa nuqtayi nazarlar taqdim qilishini tahlil qilish</p> <p>fikrni aniq, izchil, mantiqiy, ta'sirchan yetkaza olish</p>
<i>Test topshiriqlari turlari va shartlari</i>	<p>ochiq (kengaytirilgan javobni talab qiluvchi) test topshiriqlari</p> <p>matn tahlili, matnlarning qiyosiy tahlili</p> <p>asarlar matnlarini imtihonga olib kirish mumkin</p> <p>turli janrlar, davrlar, adabiy oqimlar</p>	<p>yopiq (muqobil javobli) test topshiriqlari (matn asosida)</p> <p>ochiq (kengaytirilgan javobni talab qiluvchi) test topshiriqlari</p> <p>she'riyat, nasr, drama, badiiy argumentatsiya</p> <p>notanish matnlar va o'qishga tavsiya qilingan asarlar</p>	<p>ochiq (kengaytirilgan javobni talab qiluvchi) test topshiriqlari</p> <p>matn tahlili, matnlarning qiyosiy tahlili</p> <p>tanish va notanish matnlar tahlili</p> <p>og'zaki taqdimot (kurs davomida): ikki asar tahlili (ingliz tilidagi asar va ingliz tiliga tarjima qilingan asar)</p>

Umuman, mazkur imtihon tizimlarini solishtirishda ular o'quvchining adabiy savodxonligi va oliy ta'limga tayyorgarligini o'lchash imkonini beradigan quyidagi uch modelga tayanishini ko'rish mumkin:

tahlilchi: bu modelda o'quvchi matn bilan yaqindan ishlashi, muallif tiliga xos xususiyatlar, badiiy tasvir vositalari va asar kompozitsiyasining o'zaro aloqasini tahlil qilishi, "bu matn qanday ishlaydi?" degan savolga javob izlashi kutiladi;

tanqidchi: mazkur model o'quvchini matn tahlilida kengroq kontekstni ham (masalan, asar yozilgan davr, muallifning dunyoqarashi, asarda ko'tarilgan ijtimoiy, siyosiy va madaniy masalalar) hisobga olishga va "bu matn nima uchun yozilgan va u kimning manfaatlarini ifodalaydi?" degan savolni qo'yishga undaydi;

kommunikator: bu modelda asosiy urg'u o'quvchining olgan bilimlari va tahlil natijalarini boshqalarga aniq, izchil va ishonchli dalillar bilan yetkazib berish qobiliyatiga qaratiladi.

Ushbu modellarda badiiy matn nafaqat madaniy artefakt (madaniy yodgorlik) sifatida, balki fikrni dalillash manbayi hamda o'quvchi (kitobxon) va matn o'rtasidagi dialog uchun asos sifatida ko'riladi. Bunday yondashuv o'quvchining bilimlarni tayyor holda o'qituvchi yoki darslikdan passiv o'zlashtirishi emas, balki faol qurishini nazarda tutadigan konstruktivizm yondashuvi va badiiy matndan ma'no hosil qilishni o'quvchi va matn o'rtasidagi dialog jarayoni sifatida ko'radigan tranzaksiya nazariyasining (11) asosiy g'oyalariga hamohangdir.

### 3. Ona tili va adabiyot bo'yicha Milliy sertifikat imtihoni adabiyot qismining o'ziga xos xususiyatlari

O'zbekistonda Bilimlarni baholash tomonidan Milliy sertifikat imtihonlarida adabiyot alohida fan sifatida ajratilmagan bo'lib, adabiyotga oid ko'nikmalar ona tili va adabiyot sertifikati doirasida baholanadi. Shu o'rinda qiziq paradoksni kuzatish mumkin: bir qator davlatlar, xususan, Buyuk Britaniya va AQSH ta'lim tizimlarida adabiyot alohida fan sifatida o'qitilmasdan, ona tili tarkibida bo'lsa-da, maktab bitiruvchilarini sertifikatlashda adabiyotdan alohida

imtihon topshiriladi. O'zbekistonda esa maktab ta'limining o'rta va yuqori bosqichida adabiyot alohida fan sifatida o'qitilsa-da, Milliy sertifikat tizimida ona tili va adabiyot bir fan sifatida baholanadi.

Ona tili va adabiyot bo'yicha Milliy sertifikat imtihonida jami 45 test topshirig'idan 17 tasi adabiyot faniga oid bilim va kompetensiyalarni baholashga qaratilgan bo'lib, shulardan 10 test topshirig'i ikkita matn (nasriy yoki dramatik hamda lirik) tahliliga

oiddir. Bu test topshiriqlari badiiy asarni tahlil qilishga oid kompetensiyalarni (parchaning umumiy g'oyasi va mazmunini anglash, obrazlarga tavsif berish, yashirin ifodalangan ma'noni topish, lingvistik xususiyalar, badiiy tasvir vositalari hamda ularning maqsadini aniqlash singari) o'lchashga qaratilgan. Qolgan test topshiriqlari esa umumiy o'rta ta'lim dasturiga kiritilgan va mustaqil o'qish uchun tavsiya qilingan badiiy asarlar hamda adabiy-nazariy tushunchalar (adabiy tur va janrlar, badiiy obraz va badiiy tasvir, she'r vaznlari va she'riy san'atlar) yuzasidan bilimlarni tekshiradi (10, 11).

Adabiyotga oid kompetensiyalarni baholashda faqat yopiq va mohiyatan yopiq test test topshiriqlariga yaqin bo'lgan qisqa javobni talab qiluvchi ochiq test topshiriqlariga tayanilishi quyidagi muammolarga sabab bo'lishi mumkin:

- badiiy tahlil va argumentatsiya ko'nikmalarini to'liq tekshirish imkoni mavjud emas, bu esa adabiyot darslarida "nega?" va "qanday?" singari yuqori darajadagi

kognitiv ko'nikmalarni ishga solishni talab qiladigan savollar o'rniga "kim?", "nima?", "qachon?" singari quyi darajadagi kognitiv ko'nikmalarni tekshiruvchi savollarga ko'proq e'tibor qaratilishiga olib keladi;

- matnga asoslanmagan (umumiy o'rta ta'lim dasturiga kiritilgan yoki mustaqil o'qish uchun tavsiya qilingan badiiy asarlar va adabiy-nazariy tushunchalar yuzasidan bilimlarni tekshirishga qaratilgan) test topshiriqlari reprezentativlikning pastligi (bir asar yoki tushunchadan bitta test topshirig'i berilishi) tufayli testning validligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi;

- badiiy matndan ma'no chiqarish individual jarayon ekanligi, ayni bir matnni turli o'quvchi turlicha talqin qilishi mumkinligi hisobga olinsa, ayrim hollarda matn asosidagi test topshiriqlari test tuzuvchining subyektiv interpretatsiyasiga asoslan-ganini kuzatish mumkin, bu esa abituriyentlarning asosiy e'tibori matnni tushunish va tahlil qilish o'rniga test yechish texnikalariga qaratilishiga olib kelishi mumkin.

#### 4. Xulosa va tavsiyalar

Ona tili va adabiyot bo'yicha Milliy sertifikat imtihonlari validligini oshirish, shuningdek, bu imtihonlarning ta'lim tizimiga kuchli ta'siridan ijobiy foydalanish (ijobiy "washback" hosil qilish) maqsadida quyidagi takliflar ilgari surilmoqda:

ona tili va adabiyotni alohida fanlar sifatida ajratish hamda filologiya yo'nalishlari uchun adabiyotni mutaxassislik fanlaridan biri sifatida belgilash – bu testda qamrab olingan bilim va kompetensiyalar reprezentativligini va pirovardida, testlarning validligini, xususan, abituriyentning oliy ta'lim

dasturlarini qay darajada muvaffaqiyatli o'zlashtirib keta olishi haqida prediktiv ma'lumot bera olish imkoniyatini oshiradi;

adabiyot fanida baholanadigan konstruktarni aniq belgilash, bunda yuqori darajadagi kognitiv ko'nikmalarga, xususan, tahlil, fikrini asoslash, kontekstni va matnning o'quvchiga ta'sirini hisobga olgan holda badiiy matndan ma'no yaratish, badiiy matnga baho berish singari ko'nikmalarga urg'u berish - bu

xalqaro tajribada mavjud tahlilchi va tanqidchi modellarini milliy tizimga integratsiya qilish imkonini beradi;

yuqori darajadagi kognitiv ko'nikmalarni tekshirish maqsadida ochiq test topshiriqlaridan keng foydalanish va bunday test topshiriqlarini baholash uchun mezonlar (rubrikalar) ishlab chiqish - bu xalqaro tajribadagi kommunikator modelini milliy tizimga integratsiya qilish imkonini beradi.

## Adabiyotlar

1. Cheng, L. and Curtis, A. (2004) Washback or Backwash: A Review of the Impact of Testing on Teaching and Learning. In: Cheng, L. and Watanabe, Y. (Eds) Washback in Language Testing. Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates.
2. Green, A. (2025) Theories and Models of Washback. In: Allen, D. (Ed). Washback Research in Language Assessment: Fundamentals and Context. New York, NY: Routledge.
3. O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-il 12-oktyabrdagi 646-son qarori. Umumta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning milliy test tizimini joriy etish to'g'risida. <https://lex.uz/docs/-5044726>
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining Qarori. 2024-yil 29-mayda Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 3515. Xorijiy tillar va umumta'lim fanlarini bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida. <https://lex.uz/docs/-6943986>
5. Cambridge OCR. (2024) A-level English Literature. Exam Specification. <https://www.ocr.org.uk/qualifications/as-and-a-level/english-literature-h072-h472-from-2015/>
6. AQA. (2025) AS and A-level English Literature. Exam Specification. <https://www.aqa.org.uk/subjects/english/a-level/english-7712/specification>
7. Pearson Edexcel. (2025) A-level (Level 3 Advanced GCE) English Literature. Exam Specification. <https://qualifications.pearson.com/en/qualifications/edexcel-a-levels/english-literature-2015.html>
8. College Board. (2024) AP® English Literature and Composition Course and Exam Description. <https://apcentral.collegeboard.org/courses/ap-english-literature-and-composition/exam>
9. International Baccalaureate Organization. (2019) International Baccalaureate Diploma Programme Subject Brief. Language A: Literature. <https://www.ibo.org/programmes/diploma-programme/curriculum/language-and-literature/language-a-literature/>
10. Bilim va malakalarni baholash agentligi. Ona tili va adabiyot fanidan namunaviy test topshiriqlari. [https://uzbmb.uz/upload/file/pdf/milliytest/ona\\_tili.pdf](https://uzbmb.uz/upload/file/pdf/milliytest/ona_tili.pdf)
11. Beach, R. (1993). A Teacher's Introduction to Reader-Response Theories. Urbana, IL: National Council of Teachers of English.

## ASSESSMENT OF LITERATURE KNOWLEDGE AND SKILLS OF SCHOOL GRADUATES: COMPARATIVE ANALYSIS OF NATIONAL AND INTERNATIONAL APPROACHES

**K.Q. Jalilov**

*Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature, 103 Yusuf Xos Hojib street, Tashkent, Uzbekistan*

**Abstract.** The washback effect of assessment, that is, its impact on the behavior of participants of the educational process, determining what and how they learn and teach, has long been documented in the scientific literature. In particular, it is known that high-stakes exams can bring either a positive or a negative washback effect. The article compares the content and constructs assessed in the National Certificate on Mother Tongue and Literature (literature section) of the Agency for the Assessment of Knowledge and Skills with those of international qualifications such as A-level (Great Britain), AP (USA) and the International Baccalaureate (IB Diploma Program), and puts forward proposals for improving the National Certificate system.

**Keywords:** national certificate, literature, high-takes exams, washback.

DOI /10.5281/zenodo.18933393

## BADIY TASVIR VA IFODA VOSITALARI GRAMMATIK BILIMLARNI ANIQLASHDA QO'LLANILADIGAN YOPIQ TEST TOPSHIRIQLARINI SHAKLLANTIRISHDA AUTENTIK MISOLLARGA TAYANISH VOSITASI SIFATIDA

**U.G'.Mamarasulov**

*Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi  
Bilim va malakalarni baholash agentligi, 10084, Toshkent sh., Bog'ishamol k.,12*

**Qisqacha mazmuni.** Mazkur ilmiy maqolada nemis tili grammatik bilimlarni, xususan, sifat turlanishi, artikllar, olmoshlar va gap qurilishi kabi konstruktarni baholashda autentik badiiy matnlardan foydalanish metodologiyasi o'rganilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi — test topshiriqlarining obyektivligini ta'minlagan holda, ularning autentiklik va ekologik validligini oshirishdan iborat. An'anaviy sun'iy gaplar o'rniga adabiy ifoda vositalari (metafora, personifikatsiya, ironiya) ishlatilgan gaplar asosida yopiq turdagi test topshiriqlari namunalari ishlab chiqildi.

**Kalit so'zlar:** testologiya, grammatik test, badiiy tasvir va ifoda vositalari, autentiklik, validlik, konstrukt, sifat turlanishi, nemis tili, yopiq test topshiriqlari.

Nemis tili filologiyasida grammatik bilimlarni baholash jarayoni obyektivlik, ishonchlilik va validlik kabi asosiy testologik mezonlarga javob berishi lozim [5]. Ushbu talablarga erishish maqsadida amaliyotda eng keng tarqalgan baholash shakli yopiq turdagi test topshiriqlari bo'lib, ular ball berishning yuqori darajada obyektivligini ta'minlaydi. Biroq an'anaviy grammatik testlarda ko'pincha tilning haqiqiy va tabiiy qo'llanishidan uzilgan, sun'iy ravishda yaratilgan "laboratoriya" gaplaridan foydalaniladi. Ushbu yondashuv test topshiriqlarining leksik va sintaktik jihatdan soddaligini ta'minlasa-da,

tilning murakkab madaniy va ijtimoiy kontekstini e'tibordan chetda qoldiradi, bu esa testning autentiklik (haqiqiylik) darajasini sezilarli darajada pasaytiradi. Zamonaviy test nazariyasida, xususan, L.F.Bachman va A.S.Palmerning ishlari orqali ta'kidlanishicha, testing samaradorligi uning validligi bilan uzviy bog'liqdir. Validlik – testning o'lchashni maqsad qilgan konstruktini samarali o'lchay olishini isbotlash jarayoni [6] – test topshiriqlarining tilni maqsadli qo'llash vazifalarining xususiyatlariga mos kelishini talab etadi. Badiiy adabiyot, ayniqsa, *badiiy tasvir va ifoda vositalari* (masalan, metafora, personifikatsiya,

ironiya) bilan boyitilgan autentik misollar tilning eng yuqori va tabiiy qo'llanishi namunasidir. Bunday matnlar grammatik kompetensiyani faqat qoidalar yig'indisi sifatida emas, balki tilning boy kontekstida qo'llash qobiliyati sifatida baholash uchun zarur bo'lgan ekologik validlik mezoniga javob beradi [12]. Shu nuqtayi nazardan, nemis tili grammatik konstruktlarini (sifat turlanishi, artikllar, olmoshlar, gap tuzilishi) tekshirishda badiiy tasvir va ifoda vositalaridan foydalanish testlarning obyektivligini saqlagan holda, autentikligini va kontekstual mosligini oshirishning metodologik muammosini hal qilish uchun dolzarb hisoblanadi.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi nemis tili grammatik bilimlarni baholashda badiiy tasvir va ifoda vositalari ishlatilgan autentik misollar orqali autentiklik va konstruktiv validlikni bir vaqtda ta'minlovchi metodologik yondashuvni ilmiy asoslash hamda amaliy jihatdan namoyish etishdan iborat.

Belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar qo'yilgan:

- a) til testlarining nazariy asoslari (autentiklik va ekologik validlik) nuqtayi nazaridan badiiy tasvir va ifoda vositalarining pedagogik afzalliklarini nazariy jihatdan asoslash;
- b) adabiy matn korpusidan badiiy

tasvir va ifoda vositalari ishlatilgan gaplarni tanlab, ularni aniq grammatik konstruktarni tekshirish uchun zarur bo'lgan bo'shliqlar yaratishga moslashtirish;

- c) tanlangan grammatik mavzular bo'yicha yopiq test topshiriqlari namunalarni ishlab chiqish va ularning funksional vazifalarini tahlil qilish;
- d) topshiriqlarning stilistik tahlilni emas, balki faqat grammatik bilimlarni tekshirishini ta'minlash usullarini (konstruktini izolyatsiya qilish) muhokama qilish.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi badiiy tasvir va ifoda vositalarining o'zini (masalan, metafora yoki personifikatsiyani) tahlil qilishni o'lchash predmeti sifatida emas, balki grammatik bilimlarni baholashning autentik va kontekstual asosini ta'minlovchi vosita sifatida qo'llashda namoyon bo'ladi. Bu stilistik tahlil predmetini grammatik o'lchov vositasi bilan birlashtiradi. Tilning estetik qimmati (adabiy matn) pragmatik pedagogik o'lchov (grammatik test) bilan uyg'unlashtirilib, filologik ta'limda til kompetensiyalarini baholash sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv test topshiriqlarining mazmuniy validligini mustahkamlaydi, chunki ular tilning real va murakkab qo'llanishi sharoitlariga to'liq javob beradi. Tadqiqot nemis tili grammatik

materialini badiiy tasvir va ifoda vositalari asosida sinovdan o'tkazish uchun zarur bo'lgan uch bosqichli metodologiyaga tayanadi. Ushbu metodologiya pedagogik o'lchovlar nazariyasining asosiy talablari – validlik va autentiklikni bir vaqtda ta'minlashga qaratilgan. Pedagogik testning sifati, avvalambor, uning validligi bilan belgilanadi. Validlik tushunchasi testning u o'lchashni mo'ljallagan konstruktga mos kelishini anglatadi. Grammatik bilimlar bizning tadqiqotimizda asosiy konstrukt bo'lib xizmat qiladi. Konstrukt validligi test topshirig'i nazariy tushunchani qanchalik yaxshi aks ettirishini tekshiradi. Badiiy tasvir va ifoda vositalari ishlatilgan gaplardan foydalanishda konstruktiv validlikni saqlashning asosiy sharti *konstruktni izolyatsiya qilish* hisoblanadi. Ya'ni talabgorning javobi matnning stilistik qirralarini (masalan, *Metapherning* ma'nosini) tushunishga bog'liq bo'lmasligi, balki faqat aniq grammatik qoidani qo'llashni talab qilishi kerak. Agar matnning murakkabligi tufayli talaba stilistik tahlilga chalg'isa, bu konstruktga aloqador bo'lmagan o'zgaruvchanlik (construct-irrelevant variance) xavfini keltirib chiqaradi, bu esa o'lchov aniqligini pasaytiradi [7]. L.F.Bachman va A.S.Palmer autentiklikni test topshirig'i xususiyatlarining real til vazifalariga mos kelish darajasi sifatida ta'riflagan, badiiy tasvir va ifoda vositalari qo'llanilgan adabiy

matnlar korpusi tilning sintaktik, leksik va semantik jihatdan eng murakkab hamda boy ifodalanilishini namoyish etadi. Bunday materialdan foydalanish testlarning ekologik validligini oshiradi, chunki u tilni faqat sodda qoidalar yig'indisi emas, balki real diskurs doirasida tabiiy tizim sifatida o'rganish mezoniga to'liq mos keladi. Ekologik validlik – bu tilshunoslik tadqiqoti usullari yoki test topshiriqlari bilan real dunyodagi hodisalar (ya'ni tilning kundalik, haqiqiy foydalanishi) o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettiradi [12]. Ekologik validlik tushunchasi dastlab kognitiv psixologiyada paydo bo'lib, u yerda olimlar sun'iy laboratoriya sharoitlarida o'tkazilgan qat'iy eksperimentlarga qarshi chiqqan [14]. Tadqiqot uchun material E.M.Remarkning "Der Weg zurück" romanidan tanlandi, unda turli badiiy tasvir va ifoda vositalari (Metafora, Personifikatsiya, Hyperbel, Ironiya) ishlatilgan gaplar mavjud. Tanlashda ushbu badiiy tasvir va ifoda vositalarining mavzu doirasini emas, balki faqat grammatik konstruktни tekshirish imkoniyatini ta'minlovchi kriteriyalar qo'llanildi:

1. **Grammatik bo'shliq yaratish imkoniyati:** Gapda bevosita grammatik qoidaga tegishli bo'lgan, ammo Stilfiguraning asosiy mohiyatini tashkil etmaydigan aniqlagich, artikl yoki olmoshni chiqarib tashlash imkoniyati bo'lishi zarur.
2. **Kontekstni minimal o'zgartirish:**

Autentiklikni ta'minlash uchun gapning asl tuzilishiga test tuzish maqsadidan kelib chiqqan minimal o'zgartirishlar kiritilgan. Gapning stilistik butunligiga zarar yetkazmaslikka harakat qilindi.

Yopiq test topshiriqlari nemis tili grammatikasining asosiy sinov mavzulari bo'yicha yaratildi. Bu mavzularga sifatlarning turlanishi, artikllarning qo'llanilishi, olmoshlar, sifadajalari va gap tuzilishi tartibi kiritildi. Yopiq test topshiriqlari standartlariga ko'ra, topshiriqlar aniq, qisqa va faqat bitta to'g'ri javobni tanlashni talab qiladi. Yuqori sifatli yopiq test topshiriqlarining muhim xususiyati ishonarli distraktorlarning (chalgituvchi variantlarning) mavjudligidir. Distraktorlar tasodifiy bo'lmas-

ligi [8], balki talabalar orasida keng tarqalgan tipik xatolarga asoslanishi kerak. Autentik matnlar murakkab bo'lgani sababli, grammatik xatolarning manbalari ko'p bo'ladi. Shuning uchun distraktorlar faqat tekshirilyotgan asosiy grammatik qoidaning (masalan, Genitiv kelishigidagi sifad qo'shimchasi) noto'g'ri shakllarini aks ettirishi, boshqa qoidalarni aralashtirib yubormasligi lozim. Masalan, sifad turlanishida kuchli va kuchsiz turlanishdagi xatolarni, yoki Dativ va Akkusativdagi aralashmalarni aks ettiruvchi distraktorlar samarali hisoblanadi.

Tadqiqotning amaliy natijasi sifatida, badiiy tasvir va ifoda vositalari asosida nemis tili grammatik konstruktlerini tekshirish uchun quyidagi matritsa shakllantirildi.

### 1-jadval

#### Badiiy tasvir va ifoda vositalari asosida grammatik topshiriqlar matritsasi

Grammatik mavzu	Badiiy tasvir va ifoda vositalari turi (manba)	Topshiriq formati	Tekshirish maqsadi (grammatik fokus)
Sifat turlanishi	Personificatio	Bir to'g'ri javobni tanlash	Aniqlovchi qo'shimchasining kelishik va jinsga mosligini tekshirish (Adiektivdeklinasion).
Artikllarning qo'llanishi	Metapher	Bo'shliqni to'ldirish	Artikllarning aniqligi va kelishikdagi (Dativ/Genitiv) shaklini tekshirish.
Olmoshlar	Symbolik	Bir to'g'ri javobni tanlash	Nisbiy olmoshlarning bosh gapdagi so'zga mosligini va kelishik shaklini tekshirish.

Gap tuzilishi	Hyperbel	To'g'ri ketma-ketlikni o'rnatish	Ergash gaplarda fe'ning oxirgi o'rinini va murakkab gaplarda so'z tartibi (Wortfolge) qoidalarini tekshirish.
---------------	----------	----------------------------------	---

Quyida autentik badiiy tasvir va ifoda vositalari ishlatilgan gaplarga asoslangan yopiq turdagi test topshiriqlari namunalari keltirilgan.

**1-namuna: Sifat turlanishi (Adjektivdeklinatation)**

- **Autentik gap (badiiy tasvir va ifoda vositasi):** *Personificatio* qo'llanilgan: «Der Wind miaut um die Reste der Brustwehren» (Shamol eski devorlar qoldiqlari atrofida miyovlaydi) [11].
- **Test savoli (Aufgabenstellung):** Quyidagi gapdagi sifatning to'g'ri qo'shimchasini tanlang. Der Wind miaut um die Reste der **alt**\_\_ Brustwehren.
- **Variantlar:**
  1. -e
  2. -en (To'g'ri javob: Genitiv Plural/Kuchsiz turlanish der... Brustwehren)
  3. -em
  4. -er
- **Tahlil:** Topshiriq Genitiv Plural kelishigidagi sifatning kuchsiz turlanish qoidasini tekshiradi. Aniqlagich *der* bo'lgani uchun sifat -en qo'shimchasini oladi. Mazkur topshiriqda Stilfiguraning mazmunini tushunish shart emas; javobni

topish faqatgina grammatik qoidaga asoslanadi. Distraktorlar (1, 3, 4) ataylab noto'g'ri kelishikdagi yoki noto'g'ri turlanishdagi tipik xatolarni aks ettirish uchun ishlab chiqilgan.

**2-namuna: Artikllar va kelishiklar (Artikelgebrauch)**

- **Autentik gap (badiiy tasvir va ifoda vositasi):** *Metapher* qo'llanilgan: «Groß und rot schwimmt der Mond in der diesigen Luft» (Oy suvdagi narsadek suzayotgandek tasvirlangan) [11].
- **Test savoli (Aufgabenstellung):** Bo'shliqqa mos keluvchi artikl shaklini tanlang. Groß und rot schwimmt der Mond in \_\_\_\_ diesigen Luft.
- **Variantlar:**
  1. die (Akkusativ)
  2. dem (Dativ Maskulinum/Neutrum)
  3. der (To'g'ri javob: Dativ Feminimum)
  4. den (Akkusativ Plural/Dativ Maskulinum)
- **Tahlil:** Ushbu topshiriq ikki tomonlama predlog *in* ning Dativ

(holatni bildiruvchi) kelishigini aniqlashni talab qiladi (*Luft* soʻzi Feminimum jinsida). Distraktorlar Akkusativ shakllarini (1) va Dativdagi notoʻgʻri jinsdagi artikllarni (2, 4) aralashtirib yuborish ehtimolini hisobga olgan holda yaratilgan. Metoforaning stilistik qimmatini tahlil qilish grammatik tanlovga taʼsir koʻrsatmaydi.

### 3-namuna: Nisbiy olmoshlar (Relativpronomen)

- **Autentik gap (badiiy tasvir va ifoda vositasi):** *Symbolik* qoʻllanilgan: «Das Glas mit den Stichlingen, das er in der Manteltasche trug...» (Baliqlar bolalik xotirasi ramzi) [11].
- **Test savoli (Aufgabenstellung):** Nisbiy olmoshning toʻgʻri shaklini tanlang. Das Glas mit den Stichlingen, \_\_\_ er in der Manteltasche trug.
- **Variantlar:**
  1. den
  2. das (Toʻgʻri javob: Akkusativ Neutrum)
  3. dem
  4. die
- **Tahlil:** Bu topshiriq nisbiy olmoshning jinsga mosligi (*Das Glas* - Neutrum) va uning ergash gapdagi kelishik vazifasini tekshiradi (tragen feʼli Akkusativni talab qiladi). Nisbiy olmosh Akkusativ Neutrumda *das* shaklida boʻlishi kerak. Distraktorlar

oʻrganuvchilar Akkusativ va Dativni (3) yoki notoʻgʻri jinsni (1, 4) aralashtirib yuborish ehtimolini hisobga oladi.

### 4-namuna: Gap tuzilishi (Satzstellung)

- **Autentik gap (badiiy tasvir va ifoda vositasi):** *Hyperbel* qoʻllanilgan: «Wir sind nur noch Übriggebliebene, Reste!» (Hissiy kuchaytiruvchi ifoda) [11].
- **Test savoli (Aufgabenstellung):** Quyidagi soʻzlarni toʻgʻri tartibda joylashtirib, tugallangan ergash gap (Nebensatz) hosil qiling. (**waren / die / hoffnungslos / wir / Überlebende / weil**)
- **Toʻgʻri ketma-ketlik:** *weil wir die hoffnungslosen Überlebende waren.*
- **Tahlil:** Ushbu format grammatikani kontekstda tekshirishga imkon beradi va ergash gaplarning asosiy sintaktik qoidasini — bogʻlovchi soʻzdan keyin kelgan feʼning gap oxirida turishini tekshiradi. Autentik gap asosida murakkabroq sintaktik qoida yaratish maqsadida gapga bogʻlovchi soʻz qoʻshildi.

Grammatik testlarda badiiy tasvir va ifoda vositalaridan foydalanishning asosiy afzalligi autentiklikni oshirish boʻlsa, eng katta metodologik qiyinchilik grammatik konstruktini izolyatsiya qilishda yotadi. Agar topshiriq badiiy tasvir va ifoda

vositalarining stilistik ma'nosini tushunishni talab qilsa, bu construct-irrelevant variance xavfini tug'diradi [7]. Buni oldini olish uchun topshiriqlarni ishlab chiqishda *uchlamchi tahlil* darajasidagi filologik aniqlik talab qilinadi: testning to'g'ri javobi badiiy tasvir va ifoda vositalarining stilistik qimmatiga bog'liq bo'lmasligi, balki faqat qat'iy grammatik qoidaga (masalan, predlog boshqaruvi yoki sifat turlanish jadvali) asoslanishi kerak. Bunday yondashuv o'quvchining kognitiv resurslarini estetik tahlilga emas, balki bevosita grammatik qoidani qo'llashga yo'naltirishni ta'minlaydi. Shuningdek, topshiriqning savol qismi imkon qadar qisqa va aniq bo'lishi, qo'shimcha, keraksiz ma'lumotlarni o'z ichiga olmasligi kerak. Bu chora matn murakkabligi tufayli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan noto'g'ri tushunish holatlarini minimallashtiradi. Test amaliyotlari ta'lim jarayoniga o'zining ijobiy yoki salbiy ta'sirini ko'rsatadi (washback effect) [10]. Agar testlarda faqat izolyatsiya qilingan sun'iy gaplar ishlatilsa, o'qituvchilar ko'pincha darsda tilni yomon amaliyotga aylantiruvchi faqat qoidalarni yodlashga qaratilgan yondashuvlarni qo'llashga majbur bo'ladi. Autentik adabiy misollarni (badiiy tasvir va ifoda vositalari) grammatik testga kiritish ijobiy *washback* effektini keltirib chiqaradi. Bu o'qituvchilarni dars jarayonida autentik, yuqori darajadagi

matnlardan foydalanishga undaydi, talabgorlarda esa tilni nafaqat funksional, balki madaniy-estetik nuqtayi nazardan ham idrok etishni rivojlantiradi. Grammatikaga oid bilimlarni badiiy tasvir va ifoda vositasi kontekstida tekshirish orqali, til bilimi bilan madaniy kompetensiya bilvosita bog'lanadi. Bu ta'lim tizimining natijaviy validligini oshirishga xizmat qiladi, chunki u nemis filologiyasi mutaxassislari uchun zarur bo'lgan keng qamrovli malakalarni rag'batlantiradi. Yopiq turdagi topshiriqlar yuqori darajada ishonchli ball berishda samarali [1], ammo ularning diskriminatsiya qobiliyati distraktorlarning to'g'ri tanlanishiga bevosita bog'liq. Distraktorlar mantiqsiz bo'lmasligi, balki o'rganuvchilarning real, keng tarqalgan grammatik xatolarini o'zida mujassam etishi kerak. Stilistik gaplar ko'pincha murakkab sintaktik tuzilishga ega bo'lgani sababli, grammatik xatolarning kelib chiqishi bir necha qoidalarga borib taqalishi mumkin. Distraktorlarni ishlab chiqishda, faqat test qilinayotgan aniq grammatik qoidaga (masalan, sifat qo'shimchasini tekshirish), boshqa qoidalarga aloqador bo'lmasligiga (masalan, fe'l zamoniga) e'tibor qaratilishi talab etiladi. Ushbu talab, badiiy tasvir va ifoda vositalari kabi yuqori kontekstual materiallardan foydalanilganda, test topshirig'ining barqaror va mustahkam ekanligini ta'minlash uchun zarurdir. Olib

borilgan tadqiqot nemis tili grammatik bilimlarni baholashda badiiy tasvir va ifoda vositalari ishlatilgan autentik badiiy matnlarga asoslangan yopiq test topshiriqlarini shakllantirishning ilmiy-metodologik asosi va amaliy mexanizmini yaratdi. An'anaviy sun'iy gaplardan voz kechish va badiiy tasvir va ifoda vositalari kabi tilning eng boy, ekologik valid materialidan foydalanish orqali testning autentiklik darajasi sezilarli darajada oshirildi. Yondashuvning markazida badiiy tasvir va ifoda vositalarining stilistik ma'nosini aniqlashni emas, balki faqat grammatik konstruktarni tekshirishni ta'minlash yotadi, bu esa konstruktiv validlikni saqlashga imkon beradi. Ushbu metodologiya yordamida sifat turlanishi, artikllar, olmoshlar va gap tuzilishi kabi asosiy grammatik konstruktarni baholash uchun amaliy yopiq turdagi test topshiriqlari namunalari ishlab chiqildi. Grammatikani adabiy kontekstda tekshirish pedagogik nuqtai nazardan ijobiy *washback* effektini keltirib chiqaradi, chunki u o'qituvchilarni ta'lim jarayonida yuqori sifatli, real matnlardan foydalanishga undaydi, shu bilan birga talabgorlarda tilga filologik va estetik munosabatni rivojlantiradi. Olib borilgan tadqiqotning natijalariga tayanib quyidagi amaliy tavsiyalarni sanab o'tishni maqsadga muvofiq deb

hisoblaymiz:

1. **Test banklarini autentik materiallar bilan boyitish:** Nemis tili grammatika test banklarini tuzishda badiiy tasvir va ifoda vositalari ishlatilgan autentik gaplarga asoslangan yopiq turdagi test topshiriqlarini muntazam ravishda kiritish tavsiya etiladi. Bu grammatik kompetensiyani baholashda tilning haqiqiy qo'llanilishi mezoniga o'tishni ta'minlaydi.
2. **O'qituvchilar malakasini oshirish:** Nemis tili o'qituvchilariga badiiy tasvir va ifoda vositalari materialidan foydalanishning metodologik prinsiplarini, ayniqsa, konstruktini izolyatsiya qilish va autentik xatolarga asoslangan yuqori sifatli distraktorlarni yaratish ko'nikmalarini o'rgatish zarur.
3. **Keyingi tadqiqotlar olib borish:** Ushbu yangi turdagi topshiriqlarning talabgorlar bilimni baholashdagi diskriminativ qobiliyatini chuqur o'rganish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, test natijalarining o'rganish jarayoniga ko'rsatadigan ijobiy ta'sirini empirik va statistik usullar yordamida (masalan, DIF – Differential Item Functioning tahlili orqali) chuqur o'rganish tavsiya etiladi [3].

### Adabiyotlar

1. Аванесов В.С. Композиция тестовых заданий. Центр тестирования. 2002. – 240.
  2. Михайлова Н.С., Минин М.Г., Муратова Е.А., Илюхин Б.В. Разработка тестовых материалов. Томск. 2008. –282.
  3. Abedi J. Language issues in item development. In S. M. Downing & T. M. Haladyna (Eds.), Handbook of test development. Lawrence Erlbaum Associates. 2006. – 778.
  4. Anglisticum Journal (IJLLIS). Authenticity in Language Testing. Volume: 6, Issue: 8. 2017.
  5. Bachman L. F. Fundamental Considerations in Language Testing. Oxford University Press. 1990. –408.
  6. Bachman L. F., & Palmer A. S. Language Testing in Practice: Designing and Developing Useful Language Tests. Oxford University Press. 1996. – 377.
  7. Cohen G. The psychology of cognition. Academic Press. 1977. –241.
  8. Haladyna T. M., & Downing S. M. A taxonomy of multiple-choice item-writing rules. Applied Measurement in Education, 2(1), 1989. –51-78.
  9. Haladyna T. M., & Rodriguez M. C. Developing and Validating Test Items (1st ed.). Routledge. 2013.– 454.
  10. Messick, S. Validity and washback in language testing. Language Testing, 13(3), 1996. – 249-266.
  11. Remark E. M. Der Weg zurück. – Berlin: Propyläen-Verlag, 1931. – 289 s.
  12. Schmuckler M. A. What is ecological validity? A dimensional analysis. Infancy, 2(4), 2001. – 419–436.
  13. Scribbr. Construct Validity.  
<https://www.scribbr.com/methodology/construct-validity/>
  14. THEORIA ET HISTORIA SCIENTIARUM, VOL. XVII. (2020).  
<https://apcz.umk.pl/THS/article/download/ths.2020.004/28034/75538>
- University of Texas CTL. Multiple-Choice Questions Guidelines.  
<https://ctl.utexas.edu/sites/default/files/writing-good-multiple-choice-exams-fic-120116.pdf>

## ARTISTIC IMAGERY AND MEANS OF EXPRESSION AS A TOOL FOR RELYING ON AUTHENTIC EXAMPLES IN FORMING CLOSED TEST TASKS USED TO DETERMINE GRAMMATICAL KNOWLEDGE

**U.G'Mamarasulov**

*Agency for Assessment of Knowledge and Competences under the Ministry of Higher  
Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan,  
100084, Tashkent., Bogishamol str., 12*

**Abstract.** This scientific article examines the methodology of utilizing authentic literary texts to assess German grammar knowledge, specifically constructs such as adjective declension, articles, pronouns, and sentence structure. The research's primary goal is to enhance the authenticity and ecological validity of test items while maintaining their objectivity. Closed Test Items samples were developed using sentences featuring figurative language (metaphor, personification, irony) instead of traditional artificial sentences.

**Keywords:** testology, grammar test, authenticity, validity, construct, adjective declension, german language, closed test items.

DOI /10.5281/zenodo.18933413

## TEST NATIJALARINING INFIT VA OUTFIT STATISTIK TADQIQOTI

Q.A. Amonov<sup>1</sup>, Y.Z. Karimov<sup>2</sup>

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi huzuridagi Ilmiy – o'quv amaliy markazi, 100084, Toshkent sh., Bog'ishamol k., 12

<sup>2</sup>O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi, 100084, Toshkent sh., Bog'ishamol k., 12

**Qisqacha mazmuni.** Ushbu maqolada tarix fanidan o'tkazilgan test sinovlari natijalari asosida test savollarining javob namunalari sinaluvchilar qobiliyat darajasiga va aksincha qobiliyat darajasi javob namunasiga qanchalik sezgir ekanligi, shuningdek, test topshiriqlarining qiyinlik darajalari va sinaluvchilarning qobiliyat darajalari o'rtasidagi mutanosiblik o'rganildi. Tadqiqot natijalari ayrim test topshiriqlariga sinaluvchilar tomonidan berilgan javoblar mutanosib emasligi va topshiriqlariga berilgan javoblar ko'proq tasodifiy va ehtiyotsizlik tufayli bo'lganligini ko'rsatdi.

**Kalit so'zlar:** tarix, infit va outfit statistikasi, Rash modeli, dispersiya, qiyinlik darajasi, qobiliyat darajasi.

### 1. Kirish

Ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, eng avvalo, zamonaviy bilim va kompetensiyalarni egallagan, fan hamda texnika taraqqiyotining hozirgi bosqichiga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash zaruratini belgilab bermoqda. Mazkur jarayonda ta'lim oluvchining individual xususiyatlarini inobatga oluvchi, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida kompetensiyaga asoslangan bilimlarni shakllantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ta'lim oluvchilarda shakllangan bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni baholashning ilmiy asoslangan, ratsional, obyektiv hamda shaffof mexanizmlarini ishlab chiqish va ularni

ta'lim jarayoniga joriy etish ta'lim tizimining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu nuqtai nazardan, bilimlarni baholash jarayoni faqatgina ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasini aniqlash bilan cheklanmay, balki ularning intellektual salohiyati, kognitiv kompetensiyalari hamda mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatini kompleks baholashning muhim pedagogik vositasi sifatida e'tirof etiladi [1-4].

An'anaviy baholash shakllari ko'pincha faqat bilimlarning reproduktiv jihatini, ya'ni yodlangan ma'lumotni qayta ifodalash qobiliyatini aniqlashga qaratilgan bo'ladi. Biroq zamonaviy ta'lim jarayoni shaxsning

ijodkorligini, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila olish qobiliyatini ham baholashni taqozo etadi [5]. Shunday ekan, ta'limda qo'llanilayotgan baholash mexanizmlarini global tajriba asosida yangilash, ularning obyektivligi, shaffofligi va haqqoniyligini ta'minlash zamonaviy islohotlarning eng dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Shuningdek, baholash jarayonining natijalari butun ta'lim tizimining rivojlanish yo'nalishlariga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Chunki o'lchov natijalariga asoslangan tahlillar ta'lim dasturlarini takomillashtirish, o'quv-uslubiy materiallarni boyitish va o'qitish metodikasini yangilash imkonini beradi [6-8].

Test sinovlarini samarali tashkil etishda sinaluvchilarning turli xil qobiliyat darajalarini inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois test topshiriqlari bir xil darajada emas, balki turli qiyinlik darajalarida tuzilishi maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini yanada aniqroq o'lchash, ularning individual tayyorgarlik darajasini to'liqroq baholash imkonini beradi [9].

Test topshiriqlari qiyinlik darajasining tabaqalashtirilishi sinaluvchilarning imkoniyatlarini to'liq ochib berishga, baholash natijalarining xolis va ishonchli bo'lishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, yuqori qobiliyatli o'quvchilar uchun murakkabroq savollar, pastroq tayyorgarlikka ega bo'lganlar uchun esa nisbatan sodda savollarni qo'llash

baholash tizimining samaradorligini oshiradi [10].

Ushbu maqolada tarix fanidan o'tkazilgan test sinovi natijalarining Rash modeli asosidagi tahlillari yoritilgan bo'lib test topshiriqlarining ichki (infit) va tashqi (outfit) moslik statistikasi o'rganilgan. Tadqiqotda qo'llanilgan test topshiriqlari to'plami jami 45 ta topshiriqdan iborat bo'lib, ulardan 10 tasi (36-45-topshiriqlar) ochiq turdagi test topshiriqlari bo'lib, har biri A va B qismlarga ajratilgan. Shu sababli, umumiy topshiriqlar soni 55 taga yetdi. Testni bajarish uchun ajratilgan vaqt javoblar varaqasini to'ldirish jarayoni bilan birgalikda 80 daqiqani tashkil etdi. Test sinovida jami 3483 nafar sinaluvchi ishtirok etdi.

Test topshiriqlari mazmun sohasi va qamrovi tarix fani bo'yicha Davlat ta'lim standarti asosida ishlab chiqilib, quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oldi:

**Qadimgi dunyo tarixi** – insoniyatning ilk davrlari, qadimgi davlatlar va ularning sivilizatsiyaga qo'shgan hissasi;

**O'rta asrlar tarixi** – Sharq va G'arb davlatlarining siyosiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyoti;

**Yangi davr tarixi** – Yevropa va Osiyodagi siyosiy jarayonlar, islohotlar va inqiloblar;

**Eng yangi davr tarixi** – XIX–XX asrlarning ijtimoiy-siyosiy voqealari, urushlar va xalqaro munosabatlar;

**O'zbekiston tarixi** - qadimgi davrdan mustaqillikkacha bo'lgan davrlar, milliy davlatchilik taraqqiyoti, mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlar. Mazkur topshiriqlar o'quvchilarning tarixiy bilimlarini baholash

bilan birga, ularning tahlil qilish, solishtirish va tarixiy voqealar orasidagi sabab-oqibat bog'liqliklarini aniqlash qobiliyatlarini ham sinovdan o'tkazishga yo'naltirilgan.

## 2. Ichki (infit) va tashqi (outfit) moslik statistikasi

Test topshiriqlarining ichki (infit) moslik statistikasida javoblar namunasining qobiliyat darajasiga va, aksincha, qobiliyat darajalarining javoblar namunasiga qay darajada sezgir ekanligini ko'rsatadi. Ya'ni, u o'quvchi o'z darajasiga mos vazifalarda modeldan qanchalik chetlanishini aniqlaydi. Ichki (infit) moslik haddan tashqari qiyin yoki oson vazifalarga unchalik sezgir emas, chunki uning e'tibori mos darajadagi topshiriqlarga qaratiladi [11]. Test topshiriqlarining ichki mosligi aniqlangan mezonlardan katta bo'lsa, Gutman namunasi [12] bilan bog'liq bo'lgan, mezonlardan kichik bo'lsa, muqobil o'quv dasturi bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni beradi.

